Rasmlı mashqlardan o'quvchilarning tahliliy fikr yuritish va ob'ektlarni tanish ko'nikmasini rivojlantirishga imkon beradiganlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyidagi rasmlı mashqda o'quvchilar berilgan yurak tuzilishiga asoslanib, qaysi hayvonga tegishli ekanligini aniqlashi lozim.



Rasmda keltirilgan yurak tuzilishiga ko'ra qaysi hayvonlarga mansubligini aniqlang. Qaysi sinf vakillarining yurak tuzilishi ancha takomillashgan? Javobingizni izohlang.

Shunday qilib, zoologiyani o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. O'qitishda masala va mashqlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, tizimga solish va amaliyotga qo'llash imkonini beradi.

TALABALARNING BILIMLARINI NAZORAT QILISH SAVOLLARI

1. Zoologiyani o'qitishda masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatini aniqlang.

2. Zoologiyani o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning mohiyatini aniqlang.

3. Masala va mashqlarni echish jarayonida o'quvchilar tomonidan qanday ko'nikmalarni egallashlarini aniqlang.

4. Masala echish jarayonida o'quvchilar amalga oshiradigan usullarining ketma-ketligini aniqlang.

5. O'qituvchi o'quvchilarda masala echish ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun nimalarga e'tibor qaratishi zarur deb hisoblaysiz?

ODAM VA UNING SALOMATLIGINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

1. Odam va uning salomatligini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning turlari.

2. Darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Odam va uning salomatligi mazmun jihatdan anatomik, morfologik, fiziologik, gigienik, ekologik, evolyusion, sitogenetik tushunchalarni o'z ichiga olganligi sababli, mazkur o'quv fanini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar ham xuddi shu mazmunda bo'ladi.

Odam va uning salomatligini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning didaktik maqsadi:

- O'quvchilarning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, tizimga solish, umumlashtirish;
- O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- O'quvchilarda o'zining, o'zgalarning salomatligini asrash, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish;
- Jismoniy tarbiya va sportning organlar sistemasi ishiga va inson salomatligiga bevosita ta'sirini yoritish;
- Kuzatish va tajriba qo'yish, natijalarni umumlashtirish va xulosa yasash ko'nikmalarini rivojlantirish sanaladi.

O'qituvchi masala va mashqlarning didaktik maqsadi, o'rganiladigan mavzu mazmunini e'tiborga olgan holda masala va mashqlardan foydalanishi, bunda o'quvchilarning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, tizimga solish, umumlashtirish, ularda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'zining, o'zgalarning salomatligini asrash, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishni nazarda tutishi lozim.

Odam va uning salomatligini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar yuqorida qayd etilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish barobarida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.


Masalan, quyidagi 1-masalani echish uchun o'quvchilar suyakning tarkibidagi anorganik va organik moddalar, ularning suyakka beradigan xususiyatlarini aniqlashi, kimyo fanidan anorganik moddalar o'rtasida boradigan kimyoviy reaksiyalar yuzasidan bilimlarini mustahkamlash va umumlashtirish, kimyo fanida o'zlashtirgan bilimlarini biologiyada foylanishi zarur.

Bunday mazmundagi masalalar o'quvchilarning tabiiy fanlar, shuningdek matematik fanlar bilan fanlararo bog'lanishni amalga oshirish imkonini beradi.

1-masala. Suyaklarni yumshatish uchun xlorid kislota eritmasiga solinadi. Sodir bo'lgan hodisani izohlang va reaksiya tenglamasini yozing.

Mazkur mavzuda o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va umumlashtirishda mashqlardan foydalanish ham yuqori samara beradi.

1-mashq. Quyidagi uzun naysimon suyakni diqqat bilan ko'rib chiqing. Suyakning mikroskopik tuzilishiga oid 1-6 raqamlar bilan belgilanganlarni aniqlang va raqamlar ketma-ketligida yozing. Bantik shaklida bog'langan suyakning mohiyatini tushuntiring va izohlang.



Quyidagi masalani echishda o'quvchilarning zoologiyadan o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratib, o'z fikrini dalillash, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

2-masala. Sut emizuvchilar va qushlarning qon bosimi bir xil bo'lishi mumkinmi?

O'quvchilar bu masalani echish uchun qushlar va sut emizuvchilarning yashash muhiti, organlar sistemasi va ularning funksiyalarini taqqoslashi, xulosa yasashi lozim bo'ladi.

Quyidagi masalani echishda o'quvchilarning fizikadan o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratib, o'z fikrini dalillash, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

O'quvchilar bu masalani echish uchun fizikadan o'zlashtirgan suyuqliklarning xususiyatlari, suv va havoning xususiyatlarini taqqoslashi, ularni biologik masalalarni echishga safarbar etishi nazarda tutiladi.

3- masala. Ko'z soqqasida suyuqlik bilan to'lgan shishasimon tanacha joylashgan. Mazkur shishasimon tanachaning suyuqlik bilan to'lganligining ahamiyatini tushuntiring. Agar shishasimon tanacha havo bilan to'lganida qanday o'zgarish sodir bo'lardi.

Quyidagi berilayotgan masalani echishda o'quvchilar matematikadan o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga qo'llash imkoniyatini yaratadi. Berilgan formula asosida organizmning energiya sarfini hisoblab topishi, ovqat rasioni bilan energiya sarfi o'rtasidagi bog'lanishlarni tasavvur qilish, ovqatlanish normasini tushunishga zamin tayyorlaydi.

4-masala. Odam organizmining 1 minutda qancha energiya sarf qilishini yurak urushining chastotasi (puls) yordamida quyidagi formula yordamida:

$$Q = 0,2 \times A - 11,3;$$

2 aniqlash mumkin.

Bu erda Q-energiya miqdori;

A- yurak qisqarishining chastotasi (puls), qolgan kattaliklar o'zgarmas sonlar.

Agar odam yuragi tinch holatda 70 marta urayotgan bo'lsa, unda bir minutda qancha energiya sarf bo'ladi? Bir soatda-chi? Bir sutkada-chi?

“Odam va uning salomatligi”ni o'qitishda mashqlardan foydalanish, ularning natijalarini jadval tarzda umumlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, o'qituvchi "Yurakning tuzilishi va ishi" mavzusida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini umumlashtirish maqsadida darslikdagi o'quv materiallaridan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldirishni tavsiya etishi mumkin:

Yurak ishining fazalari	Funksiyasi	Yurak klapanlarining holati	
		Cho'ntaksimon	Yarim oysimon
Bo'lmachalarning qisqarishi			
Qorinchalarning qisqarishi			
Pauza (yurakning umumiy bo'shishi)			

O'qituvchi "Odam va uning salomatligi"ni o'qitishda dars bilan bir qatorda darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanishni uyg'un tashkil etishi lozim.

Odam va uning salomatligini o'qitishda mazkur o'qitish shakllarida masala va mashqlardan foydalanish qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

Jumladan, o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtda quyidagi topshiriqni bajarish tavsiya etiladi.

Turmush tarzining qon aylanish organlarining ishiga ta'sirini kuzatish

Yurak ishini muntazam kuzatish maqsadida har kuni quyidagi ishlarni bajaring:
 Normal holatda yuragingizning urishi (pul's)ni sanang va qon bosimini o'lchang.
 Tinch holatda yuragingizning urishi (pul's)ni sanang va qon bosimini o'lchang.
 Jismoniy ish bajarish yoki jismoniy mashqlardan so'ng yuragingizning urishi(pul's)ni sanang, qon bosimini o'lchang va quyidagi jadvalni to'ldiring.

Odamning turmush tarzi	Sodir bo'ladigan o'zgarishlar		
	Pul's soni	Qon bosimi	Qon tomirlardagi o'zgarishlar
Jismoniy faol			
Passiv hayot			

Kuzatishlaringiz asosida odamlarning turmush tarzi va salomatligi o'rtasidagi bog'lanishlarni tushuntiring

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning o'z salomatligini asrash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida berilayotgan mashq o'quvchilar qad-qomatingizning shakllanishini kuzatish imkonini beradi.

Umurtqa pog'onasining normalligini aniqlash

O'z qad-qomatingizning holatini bilish maqsadida quyidagilarni hisoblang.

1. Elka tomondan o'ng va chap tomoningizdagi eng chekka nuqtalarni toping va ular orasidagi masofani o'lchang.

2. Xuddi shuningdek o'lchovni ko'krak tomondan amalga oshiring.

3. Ko'krak tomondan aniqlangan uzunlikni elka tomonning uzunligi miqdoriga bo'ling. $U_K : U_E$

4. Agar bo'linma miqdor jihatdan 1ga teng va undan katta bo'lsa, umurtqa pog'ona normal rivojlangan.

5. Agar bo'linma miqdor jihatdan 1dan kichik bo'lsa, umurtqa pog'onaning rivojlanishi va qad-qomatning shakllanishida o'zgarish vujudga kelgan bo'ladi.

6. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan maslahatlashgan holda umurtqa pog'onaning normal rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan mashqlarni aniqlang.


7. Olib borilgan kuzatish natijalari yuzasidan xulosa yasang va tavsiyalar ishlab chiqing.

«Odam va uning salomatligi»ni o'qitishda o'quvchilarda organlarni tanish, tuzilish va funksiya birligi, organlar sistemasining vazifalari haqida tushunchalarni shakllantirishda rasmlı mashqlar muhim o'rin tutadi.

Mazkur o'quv fanining dastlabki mavzusida odam organizmidagi organlarni tanish va joylashish o'rnini anglashda ushbu rasmlı mashqdan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilar ushbu topshiriqni bajarish jarayonida organlarni tanish va joylanish o'rnini mo'ljal olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

1-rasm




Rasmlı diqqat bilan ko'rib chiqing.

1-9-raqamlar bilan belgilangan organlarni raqamlar ketma-ketligida yozing.

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.
- 6.
- 7.
- 8.
- 9.

Nerv sistemasi mavzusi bilan tanishishda markaziy, periferik va vegetativ nerv sistemasining joylashish o'rnı, nerv hujayralari neyronlarning tuzilishi bilan tanishadilar. Mazkur rasmlı mashqlar o'quvchilarning ob'ektlarni tanish, yaxlit sistemani qismlarga ajratish, ularning o'zaro bog'liqligini tasavvur qilish imkonini beradi.



2-rasm

Rasmlı diqqat bilan ko'rib chiqing.

Nerv sistemasining odam organizmida qanday funksiyalarni bajaradi?

Markaziy nerv sistemasi, periferik va vegetativ nerv sistemasining joylashish o'rnini aniqlang va jadvalni to'ldiring.

Organlar	Joylashish o'rnı

--	--


Quyidagi berilayotgan 3-rasmlı mashqni bajarish jarayonida o'quvchilar ikkita mashq bajaradi:

a) 1-4 raqamlar bilan belgilangan neyron qismlarini aniqlaydi.

b) 1-5 raqamlar bilan belgilangan refleks yoyining tarkibiy qismlarini aniqlaydi.


Bunday tarzda tuzilgan rasmlı mashqlar bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'liq bo'lgan o'quv materialini mustahkamlash va nazorat qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, o'quvchilar neyronning tuzilishi va unga bog'liq holda funksiyasini anglashi, reflektorlik xususiyatiga mos holda refleks yoyining tarkibiy qismlari ajratishga zamin tayyorlaydi.



«Tayanch-harakatlanish organlar sistemasi» mavzusini o'rganishda muayyan ko'rgazma vositalari bilan bir qatorda quyidagi tarqatma material – rasmlı mashqdan foydalanish tavsiya etiladi.


O'quvchilar ushbu rasmlı mashqni bajarish jarayonida odam va shimpanzening skeleti tuzilishini taqqoslaydi. Ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlaydi. Farqlarning vujudga kelish sabablarini tushuntirish, dalillash, xulosa yasash ko'nikmalarni rivojlashtirish imkoniyati vujudga keladi.



4-rasm

Rasmni ko'rib chiqing. Berilgan odam va shimpanze skeletlarini taqqoslang. Kalla skeleti o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang. Umurtqa pog'onalarini taqqoslang, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang. Qo'l va oyoq skeletlarini taqqoslang, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang.


5-rasm. Quyidagi mashqda berilgan bo'g'inlarning tuzilishi va turlarini, ularning joylashish o'rnini belgilang. 1-5 raqamlar bilan belgilangan bo'g'imning tuzilishi, 1-4 raqamlar bilan belgilangan bo'g'imlarning turlarini yozing.



«Tayanch-harakatlanish organlar sistemasi» mavzusini o'rganishda "Suyakning tarkibi" laboratoriya mashg'uloti o'tkazish rejalashtirilgan. Ushbu laboratoriya mashg'ulotida suyak tarkibidagi anorganik va organik moddalar aniqlanadi.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari va ko'nikmalarini aniqlashda quyidagi rasmlar mashqdan foydalanish tavsiya etiladi.

6-rasm. Odam organizmidagi tashqi va ichki sekresiya bezlar




1. Odam organizmidagi tashqi sekresiya bezlari va ularning joylashish o'rnini aniqlang.


2. Odam organizmidagi ichki sekresiya bezlari va ularning joylashish o'rnini aniqlang va raqamlar ketma-ketligida yozing

7-rasm. Gipofiz va qalqonsimon bezning ahamiyatini aniqlang. Mazkur bezlarning funksiyasi buzilganda qanday kasalliklar kelib chiqadi?

Kasalliklarning nomini yozing.




8-rasm. Ayirish organlar sistemasi.



a) 1-3 raqamlar bilan belgilangan organlar va ularning joylashish o'rnini aniqlang.

b) ayirish organlar sistema-sining moddalar almashi-nuvidagi ahamiyatini aniqlang.

v) achchiq va o'tkir ziravorli ovqatlar buyrakka qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlang.



9-rasm. Terining mikroskopik tuzilishi

1. Terining mikroskopik tuzilishini ko'rib chiqing.

2. 1-11 raqamlar bilan belgilanganlarni aniqlang.


3. Terining tuzilishi va funksiyasi o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlang.

4. Teri qanday qavatlardan iboratligini aniqlang.

“Odam va uning salomatligi”ni o'qitishda o'quvchilarni sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda o'qituvchi quyidagi rasmlar topshiriqlardan foydalanishi maqsadga muvofiq.



10-rasm. Rasmda tasvirlangan o'quvchilarning qaysi biri to'g'ri o'tirganligini aniqlang. O'smirlarning noto'g'ri o'tirishi qanday oqibatlarga olib kelishi, qad-qomatning shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini tushuntiring.



Organizmni chiniqtirish usullari. Organizmlarni chiniqtirishning qanday ahamiyati bor? Organizmni chiniqtirishda suv, havo va quyosh proseduralaridan to'g'ri foydalanish usullarini tushuntiring.



11-rasm. Quyosh va issiq urishda birinchi yordam berish. Quyosh va issiq urishning qanday belgilari bor? Quyosh va issiq urgan odamga qanday yordam berish kerak? Mazkur holatning oldini olish tadbirlarini belgilang.

1-masala. Odamning nafas olish organlari butunligiga qaramasdan uzunchoq miyaning zararlanishi nafas olish jarayonining to'xtashiga olib kelishining sababini tushuntiring.

2-masala. Fiziologik eritmaning tarkibini va inson hayotidagi ahamiyatini aniqlang. Nima sababdan fiziologik eritmani organizmga in'eksiya qilishdan oldin tana haroratigacha isitish zarurligini tushuntiring.

3-masala. Odam qonidagi eritrositlar umrining davomiyligi 4 oy, mushukning eritrositi 2 oy, sichqonning eritrositi 1 oy, baqa va toshbaqa eritrositi 2 yil yashaydi. Nima sababdan eritrositlar umrining davomiyligi o'rtasida keskin farq qilishining sababini tushuntiring.

4-masala. Odam qonida leykositlarga nisbatan eritrositlarning miqdori ko'pligini qanday tushuntirish mumkin?

5-masala. Nima sababdan leykositlar qonda va limfada, eritrositlar faqat qonda uchrashining sababini aniqlang. Limfa tomirlariga leykositlar qaerdan keladi?

6-masala. Nima sababdan yirik venalarda klapanlar bo'ladi, ular yirik arteriyalarda uchramaydi.

7-masala. Yurak porogi kasalligining bir turida o'ng va chap bo'lmachalar o'rtasida tirqish bo'ladi. Yurak tuzilishidagi bu kamchilik inson hayotiga qanday xavf tug'diradi?

8-masala. 150g go'sht iste'mol qilinganda organizmda 150 kk energiya hosil bo'lishiga qaramasdan, u 100g nondan hosil bo'lgan 300 kkal energiyasiga nisbatan 2 marta kam bo'lishiga qaramasdan odamni to'q tutadi. Mazkur holatning sababini tushuntiring.

9-masala. Ko'zning to'r pardasida 2 tipdagi tayoqchasimon va kolbachasimon reseptorlari bo'lgan hayvonlar, to'r pardasida bir xil tipdagi reseptorlar bo'lgan hayvonlarga nisbatan qanday afzallikka ega bo'ladi?

10. Fiziologlar va tibbiyot xodimlari tomonidan isbotlangan quyidagi dalillarning mohiyatini anglashga harakat qiling:

a) sut emizuvchi hayvonlar va odamda qonning tarkibi o'xshash va shaklli elementlari bir xil tuzilishga ega;

b) qon tarkibi, guruhleri va shaklli elementlar tuzilishi odamning barcha irqalarida o'xshash bo'lganligi sababli, bir xil qon guruhiga ega turli irqqa mansub odamlarning qonini bir-biriga quyish mumkin;

Ushbu dalillar nimadan darak berishini muhokama qiling va xulosa yasang.

Xulosa qilib aytganda, "Odam va salomatligi"ni o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish ta'lim samaradorligini o'ttirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, umumlashtirish, tizimga solish, nazorat qilish va baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TALABALARNING BILIMLARINI NAZORAT QILISH SAVOLLARI

1. Odam va uning salomatligini o'qitishda masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatini aniqlang.
2. Odam va uning salomatligini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning mohiyatini aniqlang.
3. Masala va mashqlarni echish jarayonida o'quvchilar tomonidan qanday ko'nikmalarni egallashlarini aniqlang.
4. Masala echish jarayonida o'quvchilar amalga oshiradigan usullarining ketma-ketligini aniqlang.
5. O'qituvchi o'quvchilarda masala echish ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun nimalarga e'tibor qaratishi zarur deb hisoblaysiz?
6. Darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatini aniqlang.

UMUMIY BIOLOGIYA (SITOLOGIYA VA GENETIKA ASOSLARI)NI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

1. Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari)ni o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda masala va mashqlardan foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologik ta'limni yakunlovchi "Biologiya" (Sitologiya va genetika asoslari) o'quv fanini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning mazmuni o'quv fanining mazmunidan kelib chiqadi.

Mazkur o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlariga qo'yilgan asosiy talablarda bilimlar bilan bir qatorda quyidagi ko'nikmalarni egallashi lozimligi belgilangan:

- Vaqtincha mikropreparatlar tayyorlash, ularni hamda doimiy mikropreparatlarni mikroskop orqali ko'rishni;
- Hujayraning asosiy komponentlarini aniqlay olishni;

- Eng oddiy sitologik tajribalar o'tkaza olish, moddalar aylanishini sxemasini tuzish;
- Hujayraning mitoz va meyoza bo'linishidagi tafovutlarni, bosqichlarini, murtak varaqalarini farqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari;
- Genetikadan masalalar echishni, modifikasion va mutasion o'zgaruvchanlikni farqlay olishni, variasion qator tuzishni, modifikasion o'zgaruvchanlikni statistik usullar yordamida aniqlashni;
- O'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar seleksiya metodlarini;
- Genetika nuqtai nazaridan chekishning, alkogol va boshqa narkotik moddalar iste'mol qilishning zararini asoslab berishlari kerak.

Mazkur ko'nikmalar ichida genetikadan masala echa olish ko'nikmasi ham o'rin olgan bo'lib, o'quvchilarda ushbu ko'nikmani tarkib toptirish uchun avvalgi sinflarda o'qitilgan "Botanika", "Zoologiya", "Odam va uning salomatligi" da ham masala echishni yo'lga qo'yish, o'quvchilarda mantiqiy va muammoli masalalarni hal etish usullarini egallashga e'tibor qaratish lozim.

"Biologiya" (Sitologiya va genetika asoslari) o'quv fani mazmun jihatdan "Organik olamning turli-tumanligi", "Sitologiya asoslari", "Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari", "Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi", "Genetika asoslari", "Seleksiya asoslari" kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.


O'qituvchi har bo'limning didaktik maqsadlari, mazmuni, o'quvchilar bilimiga qo'yilgan talablarni e'tiborga olgan holda masala va mashqlar tuzishi va ulardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmasini egallagan bo'lishi lozim.

O'qituvchi biologiya darslarida masala va mashqlar tuzish va ulardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmasini egallashi uchun, avvalo biologik fanlarni ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirgan, masalaning izohi va shartini anglagan holda masala echa olishi va ularga monand holda masala tuza olishni bilishi kerak.

"Organik olamning turli-tumanligi" bo'limida foydalaniladigan masala va mashqlarning asosiy maqsadi darslarda o'rganilayotgan tiriklikning tuzilish darajalari, hayotning hujayrasiz va hujayraviiy shakllari, prokariot va eukariot organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, o'simlik va hayvonlarda boradigan hayotiy jarayonlar yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va tizimga solish hisoblanadi.

"Sitologiya asoslari" bo'limida foydalaniladigan masala va mashqlarning asosiy maqsadi mavzularning mazmuniga bog'liq holda o'rganilayotgan hujayra nazariyasi, sitoplazma va uning organoidlarining tuzilishi, o'simlik va hayvon hujayralari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni anglash, bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va tizimga solish hisoblanadi.


Jumladan, o'quvchilarning o'simlik va hayvon hujayralari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni anglashi, bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi mashqdan foydalanish tavsiya etiladi:



1-mashq. O'simlik va hayvon hujayralarini taqqoslash.

O'simlik va hayvon hujayralarini taqqoslang. Ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang. Umumiy va xususiy organoidlarni aniqlang.

O'quvchilarning hujayra tuzilishi haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, mustahkamlash, umumlashtirish va tizimga solishda quyidagi mashqdan foydalanish tavsiya etiladi:



2-rasm. Hujayra organoidlari.

Rasmni diqqat bilan ko'rib chiqing. 1-7 raqamlar bilan belgilangan organoidlarni aniqlang va raqamlar ketma-ketligida nomlarini yozing.

“Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari” bo'limida foydalaniladigan masala va mashqlar hujayra tarkibi, organik moddalar: uglevod, oqsil, lipid va nuklein kislotalarning o'ziga xos xususiyatlari, hujayrada boradigan modda va energetik almashinuvga bag'ishlangan bo'ladi.

Jumladan, o'quvchilarning bilimlarini aniqlashtirish, mustahkamlash, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish va tizimga solish maqsadida quyidagi masalalardan foydalanish tavsiya etiladi:

1-masala.

Qondagi albumin oqsilining molekulyar massasi 68400 tashkil etadi. Aminokislotalarning nisbiy molekulyar og'irligi 120 ekanligini e'tiborga olgan holda albumin oqsili tarkibidagi aminokislotalar sonini aniqlang.

$$\begin{array}{rcl} 1\text{ta aminokislota qoldig'i} & - & 120 \\ \times & & - 68400 \end{array}$$

$$68400 : 120 = 570$$

O'quvchilar ushbu masalani echish uchun aminokislotalar oqsillarning monomeri ekanligi, aminokislotalarning og'irligining yig'indisi oqsillarning massasini tashkil etishini bilish zarur.

2-masala.

DNK molekulasining bir qismi ASS-ATA-GTS-SAA-GGA nukleotidlar qatoridan iborat. Shu DNK zanjiri asosida sintezlangan polipeptid zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligini aniqlang.

O'quvchilar ushbu masalani echish uchun DNK ning oqsil sintezida matrisa ekanligi, organizmda sintezlanadigan barcha oqsillarning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar DNK mujassam ekanligi, DNK, i-RNK va oqsil molekulasi o'rtasidagi bog'lanishlarni tasavvur qilishi kerak.

“Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi” bobini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar bob mazmuniga bog'liq holda ko'payish tirik organizmlarning asosiy xususiyati ekanligi, bir va ko'p hujayrali organizmlarning ko'payish turlari, mitoz va meyoza bo'linish fazalari, ularning o'xshashligi va farqlari haqidagi bilimlarni masala va mashqlar orqali mustahkamlash, aniqlashtirish, umumlashtirish va tizimga solish imkoniyati vujudga keladi.

Jumladan, o'qituvchi hujayraning mitoz bo'linishi tushuntirgandan so'ng, o'quvchilarning mitoz bo'linishiga oid bilimlarni mustahkamlash, aniqlashtirish, umumlashtirish va tizimga solish maqsadida ularga quyidagi mashqni bajarishni tavsiya etishi mumkin.

1-mashq. Darslikdagi mitoz bo'linishga oid o'quv materialini diqqat bilan o'qib chiqing. Mitoz fazalarida kechadigan jarayonlar, mazkur fazalarda xromosomalar sonining o'zgarishi sabablarini tushuntiring.

Aniqlangan ma'lumotlar asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Mitoz bo'linish fazalari

Interfaza va mitoz davrlari	Kechadigan jarayonlar	Xujayrada xromosoma (n) va DNK (s) miqdori

O'quvchilar darslik va mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari asosida jadvalni to'ldiradilar. Misol tariqasida jadvalda qanday ma'lumotlar bo'lishi kerakligi berilmoqda.

Mitoz bo'linish fazalari

Interfaza va mitoz davrlari		Kechadigan jarayonlar	Xujayrada xromosoma (n) va DNK (s) miqdori
Interfaza	Sintezdan oldingi davr (G_1)	Hujayraning faol o'sishi, strukturaviy va funksional oqsillar sintezi	$2n \ 2c$
	Sintez davri (S)	Cut emizuvchilar hujayralarida 6-10 soat davom etadi. DNK replikasiya sodir bo'ladi. Bu davr oxirida har bir xromosoma ikki xromatida, ikki DNK molekulasidan iborat bo'ladi.	$2n \ 4c$
	Sintezdan keyingi davr (G_2)	Mitoxondriyalar, plastidalar, sentriollar ikkilashadi. Hujayraning bo'linishi uchun oqsil va energiya to'planadi	$2n \ 4c$
Profaza		DNK spirallasadi, xromosomalar qisqaradi va yo'g'onlashadi, yadrochalar yo'qoladi, sentriollar tarqaladi va bo'linish urchug'i hosil bo'ladi. Yadro qobig'i erib ketadi.	$2n \ 4c$
Metafaza		Xromosomalar hujayra ekvatori bo'ylab joylashadi. Sentromerlarga urchuqning mikronaychalari birikadi.	$2n \ 4c$

Anafaza	Xromatidalar qarama-qarshi qutblarga tortiladi, mustaqil xromosomalariga aylanadi.	4n 4s
Telofaza (tanafaza)	Xromosomalarining stirallari yo'qoladi, yadro qobig'i va yadroga paydo bo'ladi, urchuq mikrotrubochkalari yo'qoladi. Sitoplazma bo'linishi sodir bo'ladi, hayvonlar hujayralarida tortishish yo'li bilan, o'simlik hujayralarida to'siq hosil bo'ladi.	2n 2c

Xuddi shunday topshiriqni meyozi bo'linish bo'yicha ham berish mumkin.

2-mashq. Darslikdagi meyozi bo'linishga oid o'quv materialini diqqat bilan o'qib chiqing. Meyozi fazalarida kechadigan jarayonlar, mazkur fazalarda xromosomalar sonining o'zgarishi sabablarini tushuntiring.

Aniqlangan ma'lumotlar asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Meyoz bo'linish fazalari

Interfaza va meyozi davrlari	Kechadigan jarayonlar	Xujayrada xromosoma (n) va DNK (s) miqdori

O'quvchilar darslik va mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari asosida jadvalni to'ldiradilar. Misol tariqasida jadvalda qanday ma'lumotlar bo'lishi kerakligi berilmoqda.

Meyoz bo'linish fazalari

Meyoz bo'linishi va fazalari		Kechadigan jarayonlar	Xromosoma (n) DNK (s) miqdori
Birinci bo'linishi	Profaza I	Profaza uchun xarakterli odatiy jarayonlardan tashqari, gomologik xromosomalar kon'yugasiyasi va gomologik xromosomalar uchastkalari bilan almashinuvi – krossingover ro'y beradi	2n 4c
	Metafaza I	Gomologik xromosomalarining ayrim uchastkalari birlashganicha qoladi va hujayra ekvatori yuzasida joylashadi. Sentromerlarga urchuq mikronaychalari birikadi	2n 4c
	Anafaza I	Ikki xromatiddan iborat gomologik xromosomalar qarama-qarshi qutblarga tortilib, har bir qutbda xromosomalarining gaploid to'plami hosil bo'ladi	2n 4c

	Telofaza I	Xromosomalar despirallashadi, yadro qobig'i hosil bo'ladi, sitoplazma bo'linishi ro'y beradi.	$n2c$
	Interkinez	Qisqa, S-davri mavjud emas	$n2c$
Ikkinchi bo'linish	Profaza II	Xromosomalar qisqaradi va qalinlashadi, sentriollar tarqaladi, bo'linish urchug'i hosil bo'ladi. Yadro qobig'i erib ketadi	$n2c$
	Metafaza II	Xromosomalar hujayra ekvatori yuzasida joylashadi. Sentromerlarga urchuq mikronaychalari birikadi	$n2c$
	Anafaza II	Xromotidlar qarama-qarshi qutblarga tortiladi, mustaqil xromosomalar aylanadi. Genetik materialning uchinchi qayta kombinasiyalanishi sodir bo'ladi.	$2n \ 2c$
	Telofaza II	Xromosomalar despirallashadi, yadro qobig'i hosil bo'ladi, yadrocha paydo bo'ladi, bo'linish urchug'i mikronaychalari yo'q bo'lib ketadi. Sitoplazma bo'linishi ro'y beradi	nc

“Genetika asoslari” bobi bo'yicha masala va mashqlar turli-tuman bo'lib, ularni mavzular bo'yicha tahlil qilish mumkin.

Monoduragay chatishtirish bo'yicha beriladigan masala va mashqlarda o'quvchilarning duragaylash metodining o'ziga xos xususiyatlari, belgilarning irsiylanish qonuniyatlari, jumladan, Mendelning birinchi bo'g'in duragaylarining bir xilligi, belgilarning ajralish qonunlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llash, masala va mashqlar echish jarayonida mazkur bilimlarni mustahkamlash, aniqlashtirish, umumlashtirish va tizimga solish imkoniyati vujudga keladi.

Jumladan, quyidagi masalani echishda o'quvchilar dominant va resessiv belgilarni izohdan bilgan holda, F_1 va F_2 duragaylarining fenotipi va genotipini topishi lozim.

1-masala. Izohi: Tovuqlarda gulsimon toj dominant (A), oddiy toj resessiv gen sanaladi.

Tajribada gulsimon tojli tovuqlar oddiy tojli xo'rozlar bilan chatishtirildi. F_1 duragaylarining fenotipi va genotipi qanday bo'ladi?

A) agar F_1 duragaylari o'zaro chatishtirilsa, F_2 da qanday natija olish mumkin?

V) F_1 oddiy tojli xo'rozlar bilan chatishtirilsa-chi?

Mazkur masalada ota-ona organizmlarning genotipi va fenotipiga bog'liq holda F_1 va F_2 duragaylarining fenotipi va genotipini topadi.

Genetikadagi ba'zi masalalarda tajribada olingan natijaga ko'ra ota-ona organizmlarning genotipi va fenotipini topishi lozim bo'ladi. Mazkur masalalar nafaqat o'quvchilarning bilimlarni mustahkamlash, aniqlashtirish, umumlashtirish va tizimga solish, balki ularning mantiqiy va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Jumladan, quyidagi masalani echishda o'quvchilar tajribadan olingan natijaga ko'ra, ya'ni duragaylarning fenotipiga asoslanib ota-ona organizmlar va F_1 duragaylarining genotipini aniqlash lozim bo'ladi


2-masala. Pomidor mevasining qizil rangi (A) sariq rangi (a) ustidan dominantlik qiladi.

Tajribada ota-ona organizmlar qizil rangga ega edi, lekin ular chatishtirilganda olingan duragaylarning $\frac{3}{4}$ qismi qizil, $\frac{1}{4}$ qismi sariq rangli bo'ldi. Ota-onaning va F_1 duragaylarining genotipini aniqlang.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda masala va mashqlar echish ko'nikmasini rivojlantirish bilan bir qatorda o'quvchilarni masala tuzishga o'rgatish lozim bo'ladi.

Buning uchun o'qituvchi masala tuzishga asos bo'ladigan didaktik kartochkalar tayyorlashi va darsda o'z o'rnida foydalanishni rejalashtirish lozim bo'ladi. Quyida shunday didaktik kartochkadan namuna keltirilmoqda.

Quyidagi rasmga asoslanib masala tuzing. Masalaning izohida qaysi belgi dominant, qaysi belgi resessiv ekanligini ko'rsating. Masala shartini tuzishda olingan natijani hisobga oling.



“Genetika asoslari”ni o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning o'ziga xos xususiyatlarini mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarga individual yondoshish, turli qiyinchilik darajasiga ega bo'lgan masala va mashqlardan foydalanish iqtidorli o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masalalar dastur talablaridan yuqori va o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari asosida mazkur masalalarni echa oladigan o'ilib tanlash kerak.

Masalan, quyida berilayotgan masalani o'quvchilar bilim zahiralariga asoslanib echish bilan bir qatorda yangi bilimlarni egallashlari mumkin.

3-masala.

Fankoni sindromi (suyak to'qimasi hosil bo'lishining buzilishi)da bemorlarning siydigi tarkibida i-RNKning quyidagi kodonlariga mos: AUA-GUS-AUG-USA-UUG-UAU-GUU-AUU aminokislotalar uchraydi. Agar sog'lom odam siydigida ala, ser, ley, tir, val, ile aminokislotalari uchrashini nazarda tutgan holda Fankoni sindromi bilan kasallangan bemor uchun aminokislotalar xarakterli ekanligini aniqlang.

O'quvchilar genetik koddan foydalangan holda i-RNK dagi kodonlarga mos aminokislotalarni topib, uni sog'lom odam siydigidagi aminokislotalar bilan taqqoslasa masala hal etiladi.

Qiyinchilik darajasi og'irroq bo'lgan masalalarni “Genetika asoslari” bobining barcha mavzularidan misol keltirish mumkin.

Mazkur masala va mashqlardan o'qituvchi iqtidorli o'quvchilar bilan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ishlaydi.

O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra biologik to'garak va Fakultativ mashg'ulotlarda masala va mashqlarni echishni yo'lga qo'yishi mumkin.

Umuman olganda, biologiyani o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar mavzu mazmuniga mos tanlanadi, o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars, zaruriy shakli bo'lgan darsdan tashqari ishlar va ixtiyoriy tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalaniladi, mazkur jarayon orqali o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, aniqlashtirish, umumlashtirish va tizimga solish, bilan bir qatorda mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

TALABALARNING BILIMLARINI NAZORAT QILISH SAVOLLARI

1. "Biologiya" (Sitologiya va genetika asoslari) o'quv fanini o'qitishda masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatini aniqlang.

2. "Biologiya" (Sitologiya va genetika asoslari) o'quv fani ni o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning mazmuni va mohiyatini aniqlang.

3. Masala va mashqlarni echish jarayonida o'quvchilar tomonidan qanday ko'nikmalarni egallashlarini aniqlang.

4. Masala echish jarayonida o'quvchilar amalga oshiradigan usullarining ketma-ketligini aniqlang.

5. O'qituvchi o'quvchilarda masala echish va tuzish ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun nimalarga e'tibor qaratishi zarur deb hisoblaysiz?

6. Darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatini aniqlang.

SITOLOGIYA ASOSLARI BOBI BO'YICHA MASALA VA MASHQLAR

1-masala.

i-RNK molekulasi bir qismi UGG-UAU-SAG-GUU-SSU nukleotidlardan iborat. Shu RNK zanjiri asosida sintezlangan polipeptid zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligini aniqlang.

2-masala.

i-RNK molekulasida 426 ta nukleotid borligi aniqlangan. Shu i-RNK asosida sintezlangan oqsil molekulasida nechta aminokislota bo'lishini aniqlang.

1ta aminokislota - 3ta nukleotid

426ta - x

$x = 426:3 = 142$ ta aminokislota.

3-masala.

Polipeptid zanjiri quyidagi aminokislotalar ketma-ketligidan: val-ala-gli-liz-tri-val-ser-glu. Shu polipeptid sintezlanishiga asos bo'lgan DNK zanjiridagi nukleotidlar qatorini toping.

4-masala.

Oshqozon osti bezi ribonukleazasining bir zanjiri 10 ta aminokislota: glu-gli-asp-pro-tir-val-pro-val. Shu polipeptid sintezlanishiga asos bo'lgan DNK zanjiridagi nukleotidlar qatorini toping.

6-masala.

DNKning bir qismida uchraydigan AAT-ASA-TTT-AAA-GTS nukleotidlarning 5- va 13-nukleotid olib tashlansa, oqsil tuzilishida qanday o'zgarishlar vujudga kelishini aniqlang.

7-masala.

Tamaki mozaikasi virusi oqsilining bir qismi ser-gli-ser-ile-tre-pro-ser aminokislotalaridan iborat.

i-RNK ga nitrit kislota (HNO_2) ta'sir ettirilsa, sitozin (S) nukleotidi guanin (G)ga aylanadi.

Virusning i-RNK ga nitrit kislota (HNO_2) ta'sir ettirilgandan so'ng oqsil qanday o'zgarishga uchrashini aniqlang.

8-masala.

Tekshirishlar natijasida i-RNK tarkibida 34% guanin, 18% urasil, 28% sitozin, 20% adenin borligini aniqlandi.

Mazkur i-RNK uchun matrisa bo'lgan DNK tarkibidagi nukleotidlarning % larini aniqlang.

Echish: i-RNK G U S A bo'ladi.

DNKning 1-zanjiri S A G T ,

2-zanjiri mos holda GTSA nukleotidini tutadi.

i-RNK G 34% + 18% U + 28% S + 20%A

DNKning 1-zanjiri S 34% + A 18% + G 28% + T 20%

DNKning 2-zanjiri G 34% + T 18% + S 28% + A 20%

$S\ 34\% + 28\% = 62\%/2=31$

$A\ 18\% + 20\% = 38\%/2=19$

$G\ 34\% + 28\% = 62\%/2=31$

$T\ 20\% + 18\% = 38\%/2=19$

Demak, DNK tarkibidagi nukleotidlar S-31, A-19, G-31, T-19% ni tashkil etar ekan.

“TIRIK ORGANIZMLARNING KIMYOVIY TUZILISHI” BOBINI O‘QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Reja:

1. Tiriklikning kimyoviy tuzilishi haqida tushuncha
2. Kimyoviy tuzilish bo'yicha masalalar yechish

DNKNING KIMYOVIY TUZILISHI

F. Misner 1869- yili oq qon huja yra yadrosida nordon xossaga ega bolgan alohida moddani ajratib oldi va uni nuklein deb atadi va nuklein tarkibida fosfor kislotadan tashqari azotli asoslardan purin, pirimidin va undan tashqari 5 atom uglerodi bolgan uglevod (qand) bolishini ko'rsatdi. 1930- yillarga kelib besh atomli uglerodi bolgan uglevodlarning nuklein kislotasining tuzulishidagi o' mi va nuklein kislotasi tarkidagi bir guruh uglevodlarda bitta atom kislorod kam bolishligi aniqlandi. P. Levin shu guruhga kiruvchi uglevodni dezoksiriboza, ikkinchisini esa riboza deb atadi.

Shundan keyin nuklein kislotalar dezoksiribonuklein (DNK) va ribonuklein (RNK) kislotali deb ataladi

Riboza molekulasida uglerodga OH guruhi, dezoksiriboza esa H atomi boglanadi.

DNK va RNK bir-biridan azotli asoslari bilan ham farq qiladi.

DNK molekulasida azotli asoslardan adenin, guanin, sitozin va timinlar boladi.

RNK molekulasida esa timin uratsil bilan almashgan. Adenin va guaninni purin, sitozin va timinni pirimidin asoslari deb yuritilgan.

Azotli asos va riboza yoki dezoksiriboza birikmasini nukleozid deyiladi.

Nukleozidga fosfor kislotasi qoldig'i birlashsa nukleotid hosil bo'ladi.

Nukleotidlar bir-biri bilan fosfor kislotasi(fosfodiefir'(kavalent) bog' orqali birlashib, uzun DNK yoki RNK ipini hosil qiladi. Nuklein kislotalari yuqori molekulali birikmalar bo'lib, ular tarkibiga juda ko'p nukleotidlar kiradi..

E. Chorgaff 1950- yili barcha organizmlarning DNK molekulasida adeninning soni timinnikiga, guaninniki esa sitozinning soniga doimo to'g'ri kelishligini aniqladi. Demak, purin asoslari bilan pirimidin asoslarining soni teng. Barcha organizmlarda DNK molekulasidagi nukleotidlar o'xshash, lekin ular soni va qanday tartibda kelishi bilan farq qiladi. DNK molekulasi qanday tuzilganligini aniqlash uzoq yillar davomida muammo bo'lib keldi. Lekin 1950 –yillarda M. Uilkins DNK molekulasini roentgen nuri yordamida tekshirishdan olingan natijalami murakkab matematik usullar bilan hisoblashlardan keyin DNK molekulasining fazoviy rentgenogram-masini oldi. Keyinchalik, ya'ni 1953- yili amerikalik genetik Dj. Uotson va angliyalik genetik F. Krik rentgen nuri yordamida kimyoviy va matematik usulda olingan DNK to'g'risidagi bilimlarini umumlashtirib, uning struktura tuzilishini aniq ko'rsatuvchi chizmani (modelni) yaratdilar Bu chizma Uotson—Krik nomi bilan ataladigan bo'ldi. Bu chizmaga ko'ra DNK molekulasi ikkita uzun va ingichka ipdan iborat bo'lib, bu iplar bir-biriga eshilgan holda bitta o'q atrofida buralib, aylanma holida joylashadi. Bakteriya hujayrasidagi DNK molekulasining uzunligi 1 sm ga teng bo'lsa, odam tana hujayrasi DNK molekulasining uzunligi esa 1 m dan oshadi. DNK zanjirini tashkil qilgan ipning har biri polimer bo'lib, undagi bitta nukleotid ikkinchi nukleotid bilan o'zlaridagi dezoksiriboza bilan fosfor bog'i orqali birikadi. Ikkala ip o'zaro yana azotli asoslar orqali birikkan bo'ladi. Adenin timin bilan (A-T), guanin esa sitozin bilan (G~S) birikadi. A va T o'rtasida ikkita vodorod bog'i, G bilan S o'rtasida esa uchta vodorod bog'I bor

DNK modelini yaratishda CHargaff kuzatishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Uning kuzatishicha DNK dagi guanin miqdori sitozinga, adeninniki esa timin miqdoriga teng. Boshqacha qilib Chargaff qoidasini

$$A+G$$

$A=T$; $G=S$ yoki $\frac{A+G}{S+T} = 1$ teng deb izohlanadi.

$$S+T$$


Bundan ko'rinib turibdiki, G -S asoslari A -T ga qaraganda o'zaro mustahkamroq bog'langan. Nukleotidlar orasidagi masofa 3,4 A ga teng. DNK zanjiri o'ng tomonga aylanadigan buramni (spiralni) hosil qiladi.

DNK tabiatan biologik polimer hisoblanadi. DNK molekulasi dezoksiribonukleotidlar monomer yig'indilarining ketma-ketiigidan tuzilgan.

Nukleotid tarkibida geterosiklik azot asoslari (purin yoki pirimidinli), uglevod-dezoksiriboza va fosfat kislota qoldig'i uchraydi.

Ko'pchilik dezoksiribonukleotidlar tarkibiga purin hosilalari — adenine va guanin, pirimidin hosilalari — sitozin va timin asoslari kiradi. DNK zanjiridagi nukleotidlar o'rtasidagi bog'lanish fosfat kislotasining diefir

hosilasining qo'shni dezoksiriboza qoldiqlarining gidroqsillari (3' va 5') o'rtadagi boglar hisobiga amalga oshadi.




DNK replikasiyasi

Xromosomalar biosintezining molekular mexanizmda asosiy o'rinni DNK replikasiyasi ya'ni ikkilanishi egallaydi. DNK sintezini, bu jarayon ko'p hujayrali organizmlarda interfaza bosqichida bo'lib o'tadi.

DNK molekulasidagi qo'sh spiral o'zgarmaydi, shu holatda u o'ziga aynan o'xshash molekulani sintezlaydi. Binobarin ikki DNK molekulasining biri eski, ikkinchisi to'lig'icha yangi bo'ladi. DNK – polimeraza asosida.

Dj.Uotson va F.Krik tomonidan ishlab chiqilgan modelga to'g'ri keladi. Bu sxemaga ko'ra, DNK replikatsiyasida purin va pirimidin asoslari o'rtasidagi vodorod bog'lar uziladi. Polinukleotid zanjir bir-biridan ajraladi.



RNK VA UNING SINTEZI

RNK ham polimer bo'lib, monomerlari nukleotidlardir. RNK da ham DNK ga o'xshash azotli asos, uglevod (riboza) va fosfat kislota bor. RNK da uglevodlardan riboza bo'lib, azotli asoslardan timin uratsil bilan almashgan. RNK molekulasining zanjiri DNKnika qaraganda kalta va molekular og'irligi ham kichikdir.

RNK ning uch xili ma'lum:

- 1) i-RNK — informatsion (axborotli), irsiy axborotni DNK molekulasidan ko'chirib, uni yadrodan oqsil sintez qilinayotgan joyga (sitoplazmaga) chiqaradi;
- 2) t-RNK - transport (tashuvchi); oqsil sintezi bo'layotgan joyga, ya'ni ribosomaga tegishli aminokislotalarni tashib keltiradi;
- 3) r-RNK — ribosoma RNK si: hujayradagi ribosomalarning tarkibiga kirib, Yuqori tuzilgan organizmlar

hujayrasida RNK ning barcha turlari nusxa beruchi (matritsa) hisoblangan DNK dan sintez qilinadi. 1959—1961- yillari olimlar DNK zanjirining bittasidan R N K n i sintez qiluvchi ferment RNK-polimerazani topishdi

Belgilari	DNK(dezoksiribonuklein kislota)	RNK(ribonuklein kislota)
Hujayrada uchrashi	Yadro,xloroplast,mitoxondriya	Yadro,xloroplast,mitoxondriya, Ribosoma,sitoplazma
Yadroda uchrashi	Xromosomalarda	Yadrochada
Molekulasinin	Qo'sh spiralli polinukleotid	Bir zanjirli polinukleotid

g tuzilishi		
Monomerlari (nukleotidlar)	dezoksiribonukleotid	ribonukleotid
Nukleotid tarkibi	Azot asoslari;(purin,pirimidin) Uglevod;(dezoksiriboza) Fosfat kislota qoldig'i	Azot asoslari;(purin,pirimidin) Uglevod;(riboza) Fosfat kislota qoldig'i
Nukleotid xillari	Purin –A-G A=T,T=A Pirimidin –T-S G=S.S=G 3bog'	Purin –A-G A=U Pirimidin –S-U S=G 3 bog'
Funksiyasi	Oqsil,RNK,DNK sintezi,axborot saqlash	Bir necha xil bo'lib irsiy axborotni yadrodan sitoplazmaga olib boradi.i- RNK,t-RNK,r-RNK
Xususiyati	Reduplikatsiyalanish ega doimiy(ikki xissa ortish)	Ikki xissa ortish xususiyatiga ega emas

GENETIK KOD

DNK ham oqsilga o'xshash polimer modda hisoblanadi. Oqsil 20 ta monomerdan tuzilgan bo'lsa,

DNK faqat 3 ta monomerdan iborat (azotli asos, dezoksiriboza, fosfor kislotasi).

Nukleotidlarning barchasida dezoksiriboza va fosfor kislotasi bir xil. Farqi faqat azotli asoslardadir. DNK molekulalarining bir-biridan farqi DNK zanjiridagi azotli asoslarning joylashish tartibiga bog'liq. Azotli asoslarning joylashish tartibi oqsil molekulasidagi aminokislotalarning joylashish tartibini belgilaydi.

Genetik kod bu irsiy axborotning nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlar ketma ketligida tripletlar sifatida yozilishidir.

Genetik kodning mohiyatini shunish uchun awalo aminokislotarni nechta azotli asos aniqlashi mumkinligini bilish kerak. Agar 20 ta aminokislotaning har biri bitta azotli asos bilan aniqlanganda 20 ta azotli asos kerak bo'lar edi. Lekin azotli asoslar hammasi bo'lib 4 tagina. Bundan shu narsa chiqadiki, ikkita azotli asosdan tashkil topgan to'plam (kombinatsiya) ham 20 aminokislotani aniqlay olmaydi, chunki azotli asoslar 2 tadan

to'plam hosil qilsa hammasi bo'lib 16 to'plamni ($4^2 = 16$) tuzishi mumkin. Agar nukleotidlar o'zaro 3 tadan birlashsa 64 ta ($4^3 = 64$) har xil to'plamni hosil qiladi va xohlagan oqsilning sintezi uchun kerak bo'lgan aminokislotalarning joylashish tartibini aniqlay oladi. Azotli asoslarning bunday 3 tadan bo'lgan to'plamini triplet deyiladi. Triplet aminokislotalami 3 ta azotli asoslar bilan belgilash demakdir.

Masalan, AUU — izoleysin, GSS — valin, SAG - leysin. Oqsil molekulasida aminokislotalarning ketma-ket kelishini belgilovchi 3 ta azotli asosdan iborat bo'lgan DNK zanjirining bir qismiga kodon deyiladi.

Bitta aminokislota bitta triplet bilan aniqlanmasdan 2, 3, 4 va bundan ham ko'proq tripletlar bilan aniqlanishi mumkin ekan. Masalan: Metinonin bitta triplet (AUG) bilan aniqlansa, lizin 2 ta (AAA va AAG), izoleysin 3 ta (AUU, AUS va AUA), serin 4 ta (USU, USU, USA va USG) tripletlar bilan aniqlanadi.

64 tripletlardan 3 tasi ma'nosiz (terminator) tripletlar hisoblanadi (UAA, UGA va UAG).

Genetik kod barcha organizmlarda bir xildir (universal), ya'ni bitta triplet AAA bakteriyada, o 'simlikda, hayvonda va odamda ham aminokislota lizinni aniqlaydi.

OQSIL BIOSINTEZI

Oqsil biosintezi ikkita bosqichda boradi: Transkripsiya va Translatsiya

1) Transkripsiya(yadroda)-- i-RNK DNK molekulasiidagi oqsil to 'g'risidagi axborotni o 'ziga ko'chirib oladi.

Bir molekula — i-RNK DNK molekulasiining bitta genga to'g'ri keladigan bo'lagidan axborotni ko'chirib oladi va bu axborot asosida bir molekula oqsildagi aminokislotalaming ketma ket oylashishini belgilaydi. i-RNK yadrodan sitoplazmaga chiqib ribosoma bilan birlashgach, sintez qilinishi kerak bo'lgan oqsilga nisbatan nusxa beruvchi (matritsa) bo'lib xizmat qiladi. RNK ning DNK asosida sintez qilinish jarayoniga transkripsiya (nusxa ko'chirish) deyiladi. DNK asosida RNK ni sintez qiladigan RNK polimeraza fermenti ishtirok etadi.

RNK polimeraza uch xil, ya'ni i-RNK, t-RNK, r-RNK lami ham sintez qila olishi mumkin.

2)Translatsiya(ribosomada)—t-RNK oqsil sintezi uchun kerakli aminokislotalami oqsil sintez

qilinayotgan joyga olib keladi. t-RNK ning i-RNK kodoniga to 'g'ri keladigan joyi antikodon deyiladi. t-RNK molekulasini odatda uzun ipcha holda bo'lmasdan, komplementar qismlari (azotli asoslari) bilan bir-biriga yaqinlashganda ular orasida vodorod bog'lari hosil bolganligi uchun yig'ilgan holda bo'ladi. t-RNK molekulasiining mustahkam va turg'un bolishi undagi komplementar qismlar orasidagi vodorod bog'larining ko'pligi bilan belgilanadi. Vodorod bog'lari qancha ko'p bo'lsa molekula shuncha mustahkam va turg'un bo'ladi.

t-RNK ning shunday mustahkam strukturasi beda bargining shakliga o'xshab ketadi Bu molekulaning ikkita faol nuqtasi bo'lib, biri (antikodon) bilan i-RNK ga (kodon) birlashsa, ikkinchisi bilan aminokislotalaga birikadi.

t-R N K o 'zining i-RNK (kodon)ga mos keladigan nukleotidlari bo'lgan qismi (antikodon) bilan birlashadi. Shunday qilib, i-RNK, ribosomaning kichik bo'lagi va t-RNK lardan iborat bo'lgan bog'lam hosil bo'ladi.

Oqsil sintezi—UAS nukleotidli t-RNK (antikodon), i-RNK dan (kodon) o'ziga mos keladigan nukleotidni (AUG) topishi bilan boshlanadi.Demak boshlovchi kod AUG kodoni yani metionin oqsili.

Ribosomada aminokislotalar bir-biriga ketmaket birika boshlaydi. Ribosoma i-RNK bo'ylab 5'—3" tomonga qarab harakat qiladi. t-RNK olib kelgan aminokislotalar o'zaro birlashib oqsilning polipeptid zanjirini hosil qiladi

Terminatsiya. Oqsil biosintezining tugallanishi haqidagi xabarni uchta — UAA, UAG, UGA terminatsiya kodonlaridan biri beradi.

Chunki hujayrada bu kodonlarga to'g'ri keladigan t-RNK (antikodon) yo'q. Shuning uchun ribosomaning A markaziga — i-RNK ning yuqoridagi kodonlaridan biri to'g'ri kelganda hosil bolayotgan polipeptid zanjirining uzayishi to'xtaydi.

Odatda DNK asosida RNK sintez qilinadi. Lekin RNK asosida DNK sintez qilinishi ham mumkin. RNK asosida DNK ni sintez qiladigan fermentni topishdi. Bu ferment teskari transkriptaza yoki RNK asosida DNK ni sintez qiluvchi DNK polimeraza deb ataladi.

“HUJAYRA SIKLI” VA “ORGANIZMLARNING KO’PAYISHI” BOBINI O’QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH”

Reja:

1.Ko’payish turlari haqida tushuncha

2.“Hujayra sikli” va “Organizmlarning ko’payishi” boblari yuzasidan masala-mashqlar yechish

Organizmlarning ko’payishi

Asosan 2 xil a) jinssiz.

b) jinsiy.

JINSSIZ KO’PAYISH

Jinssiz ko’payish eng sodda, evolutsiya jarayonidagi ilk bor ko’payish usulidir. Bu usul bilan ko’payishda bitta organizm ishtirok etadi. Shu organizm o’z avlodlariga barcha xususiyatlarini deyarli o’zgarmagan holda o’tkazadi.

Jinssiz ko’payishning:

1)bo’linish, 2)shizogoniya, 3)kurtaklanish, 4)sporogoniya, 5)vegetativ xillari bor.

1) Bo’linish usuli bir hujayrali jonzotlarga xosdir.

Bo’linish usulidagi ko’payish organizmning mitoz yo’li bilan ko’payishidir. Bo’linish natijasida hosil bo’lgan ikki avlod (hujayra) o’rtasida genetik axborot va ichki tuzilmalar tengma-teng taqsimlanadi.

Hosila organizm (hujayra) o’sadi va qayta bo’linishga tayyorlanib,so’ng yangi organizmni yaratadi.

2) Ayrim bir hujayralilarda, masalan, bezgak plazmodiysining jinssiz ko’payishi ko’p marta bo’linish – **shizogoniya** usuli bilan kechadi. Hujayra (organizm) shizogoniya bilan ko’payganda,dastavval uning yadrosi birin ketin ko’p marta bo’linadi, hujayra sitoplazmasi esa bo’linmaydi — sitokinez ro’y bermaydi. So’ngra, ona hujayra ichidan har bir hosila yadro bo’linib ketgan, mayday sitoplazma bilan o’raladi — bir qancha qiz hujayra (organizmlar)paydo bo’ladi. Qiz hujayradagi irsiy informatsiya belgilari ona

organizmi belgilariga monand ravishda bo’ladi. Odatda, bu xildagi ko’payish jinsiy ko’payish bilan almashinib turadi.

3) Kurtaklanish usuli bilan ko’payishda ona organizmi (hujayra)da yadroning bir qismini tutgan sitoplazmatik do’mboqcha — kurtak paydo bo’ladi. Do’mboqcha o’ladi va ona qismidan ajraladi. Ayrim bakteriyalar va kipriklilar shu zaylda ko’payadi.

4) Spora hosil qilish (sporogoniya). Bu xil ko’payish ayrim o’simlik va bir hujayrali mavjudotlarning ko’payish usuli hisoblanadi. *Spora* — bu ko’payish jarayonini ta’minlovchi va tashqi ta’sirdan saqlanish uchun qobiqqa o’ralib olgan hujayralar to’plamidir. Jinssiz ko’payishning bir xili bo’lgan sporogoniyani ayrim bakteriya (yoki bir hujayrali organizm, masalan, ichak balantidiysi, lambliya) larning spora hosil qilishidan farqlamoq lozim. Bu xil sporalanish ko’payish uchun emas, balki noqulay sharoitdan saqlanishgagina xizmat qiladi.

5) Vegetativ ko‘payish usulida ko‘p hujayrali organizm tanasining bir qismidagi hujayralar to‘plamidan yangi organizm hosil bo‘ladi.

Masalan, gidralar ko‘payishida ona organizmidan hujayralar to‘plamidan iborat kurtak hosil bo‘ladi va so‘ng u ajralib, alohida organizmni yaratadi.

Vegetativ ko‘payish (masalan, gidralarda) jinsiy ko‘payish bilan almashinib turadi. Halqali va kiprikli chuvalchanglar ma‘lum qismlarga bo‘linib har bir qism o‘z navbatida yangi organizm hosil qilishi mumkin.

JINSIY KO‘PAYISH

Jinsiy ko‘payish natijasida genetik informatsiyaning almashinuvi, hosila individda yangi genetik to‘plamning vujudga kelishi va shunga monand ravishda o‘zgacha (o‘zgargan) biologik xususiyatga ega bo‘lgan, ya‘ni ota-ona organizmiga qaraganda chidamli, moslashuvchan yangi avlod yuzaga keladi. Mana shunga ko‘ra ham jinsiy ko‘payish biologik jihatdan afzal va mukammallashgan organizmlarning ko‘payish xili hisoblanadi. Jinsiy ko‘payish odatda ikki jinsiy hujayra — gametalarning qo‘shilishi bilan ro‘y beradi.

Jinsiy ko‘payishning anchagina murakkablashgan xillarini 2 guruhga ajratish mumkin:

a)konyugatsiya, b)kopulatsiya.

Konyugatsiya

bakteriya, infuzoriylarga xos bo‘lgan ko‘payish usulidir. Odatda kiprikli sodda hayvonlar oddiy bo‘linish bilan ko‘payadi. Bunday ko‘payishlardan keyingi jinsiy ko‘payish — konyugatsiya sodir boladi.

Ma‘lumki, infuzoriylarda makro va mikronukleolalar mavjud. Konyugatsiya boshlanganda ikki hujayra o‘ta yaqinlashadi - hujayralararo tutashtimvchi tortma hosil bo‘ladi.

Kopulatsiya

Oogamiya - kopulatsiya bilan boladigan gametogamiyaning eng yuqori shakli. Bir gameta yirik, harakat tuzilmasiga ega emas — bu urg‘ochi gameta, ya‘ni tuxum hujayradir. Ikkinchi gameta esa mayda, harakatlantiruvchi xivchinga ega — bu erkak jinsiy hujayrasi — spermatozoiddir.

Oogamiyada jinsiy hujayralar maxsus a‘zolarida (hayvonlarda urug‘don va tuxumdonlarda) hosil bo‘ladi. Ko‘pgina o‘simliklar va deyarli barcha hayvonlar oogamiya yo‘li bilan ko‘payadi.

Partenogenezda yangi avlod urug‘lanmagan tuxum hujayrasidan rivojlanadi.

Ma‘lumki, **partenogenez tabiiy va sun‘iy** bo‘lishi mumkin.

Tabiiy partenogenez hayvonlar (o‘simlik biti, sodda qisqichbaqasimonlar, ayrim baliq va sudralib yuruvchilar) qo‘ygan tuxumi urug‘lanmasdan turib yangi organizm hosil bo‘ladi. Bu hosil bolgan organizmlarning barchasi urg‘ochi boladi. Bunday ko‘payish bir-biri bilan uchrashishi qiyin bolgan mavjudotlarda namoyon bo‘ladi. Ayrim hasharotlar (ari, chumolilar)da namoyon bo‘ladigan partenogenezda ularning urug‘lanmagan tuxumidan erkak organizmlar, urug‘langan tuxumlaridan urg‘ochi organizmlar rivojlanadi.

Sun‘iy partenogenezda tuxum hujayrasini turli ta‘sir (kislota, kuchsiz elektr toki va b.) bilan qitiqlash natijasida shu gametadan yetuk organizm hosil qilishga erishiladi. Ushbu usul bilan ninaterililarda, chuvalchang, shiliqqurt, hasharot va hatto sut emizuvchilarda sun‘iy partenogenezga erishilgan.

Germofradit hayvonlarda . Ayrim organizmlarda ham tuxum, ham spermatozoid yetishtirib beruvchi a‘zolar mujassamlangan boladi. Bunday organizmga *germofrodit organizm* deyiladi. Parazit yassi chuvalchanglar shunday toifadagi organizmlardir.

Tolaqonli jinsiy ko‘payish — bu erkak va urg‘ochi jinsiy hujayralari hosil bo‘lib, tuxum hujayrasiga spermatozoid kirib, ikkala gameta yadrosining qo‘shilishi bilan boshlanadi.

MITOTIK BO‘LINISH

(Mitoz yunoncha –ip degan manoni beradi)

Hujayraning hayotiy sikli va bo‘linishi.

Yangi bo‘linib hosil bo‘lgan hujayra hayotida differensiatsiya ro‘y beradi, u maxsus faoliyatini bajarishga moslashadi, funksiyasini o‘taydi, qariydi va nihoyat o‘ladi.

Ikki bo‘linish oralig‘i-----**interfaza** hisoblanadi.

Interfaza 3 davrni o‘z ichiga oladi:

- 1) Bo‘linishdan keyingi ya‘ni sintezdan oldingi— *birinchi o‘sinh (G₁)* davri
- 2) DNK sintezi ro‘y beradigan davr (**S**); *Sintez davri*
- 3) sintezdan keyingi yoki mitozdan oldingi— *ikkinchi o‘sinh (G₂)* davri.

Interfaza yakunida, odatda hujayrada mitotik bo‘linish (*M*) ro‘y beradi. Hujayraning bo‘linishga tayyorlanishi (interfaza) va bo‘linishi (mitoz) uning mitotik sikli hisoblanadi.

Organizm hayoti davomida ko‘pgina hujayralar almashinib turadi. Bundan nerv hujayralari mustasno. Nerv hujayralari organizm tug‘ilgandan keyin o‘sadi, murakkablashadi, ammo qayta hosil bo‘lmaydi, demak ularda bo‘linish hodisasi ro‘y bermaydi.

Birinchi o‘sinh (G₁) davri-- hujayrada o‘sinh, oqsillar va RNK to‘planishi bilan boshlanadi. Bu jarayon natijasida hujayra o‘zining shunday massasiga ega bo‘lib qoladiki, u mitotik siklning keyingi -- S davrining boshlanishini taqozo etadi. G₁ davr mobaynida DNK yangi molekulasini va uning sintezini, RNK va oqsil metabolizmini ta‘minlovchi fermentlar sistemasi hosil boladi.

DNK sintezi ro'y beradigan (S) davr-- davri hujayra siklining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Sintetik davrsiz somatik hujayralarda mitoz ro'y bermaydi. Bu davrda DNK reduplikatsiyasi, ya'ni yangi DNK molekulasining sintezi ro'y beradi. S davr so'ngida hujayra ikki molekula DNK ga ega bo'ladi (mitoz jarayonida hosil boladigan har bir qiz hujayrasiga bir molekuladan DNK ni taqsimlab berish uchun ko'rilgan tayyorlanish ro'y beradi) Sintetik davrda hujayra organoidlari ham ortadi.

Ikkinchi o'sish (G₂) davri-- G₂ davrda RNK va bolinish jarayonini ta'minlovchi oqsillar sintezlanadi (ayniqsa, bolinish dukini hosil qiluvchi oqsillarning sintezlanishi diqqatga sazovordir).

Mitoz bosqichi---Somatik hujayralar mitoz yo'li bilan bo'linib ko'payadi. Mitozda hujayrada ketma-ket ro'y beradigan 4 davr tafovut qilinadi:

Profaza, Metafaza, Anafaza, Telofaza

Mitoz jarayonida hosil bo'lgan 2 ta qiz hujayra ona hujayraga xos bo'lgan barcha tuzilmalarga va,ayniqsa, to'liq irsiy materialga ega bo'ladi. Mitoz natijasida genetik modda ikki qiz hujayra o'rtasida tengma-teng bo'linadi.

Profaza. Bu davrda interfazada unchalik ko'z ilg'amas genetik mahsulot - xromatidan oddiy yoruglik mikroskopida ham yaqqol ko'rinuvchi xromosomalar shakllana boshlaydi.Xromatinlar spirallashadi va buraladi – xromatin iplari yo'g'onlashadi, qisqaradi. Shunday qilib, shakllanayotgan har bir xromosoma 2 ta xromatin ipidan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan

sentromera orqali qo'shiladi. So'ng xromosomalar yadro qobig'i bo'ylab joylashib oladi. Xromosomaning spirallashishi kuchayib, uning kaltalanishi ro'y beradi.. Har bir juft sentrioladan yangi mikronaychalar hosil bo'lib, bir-biriga qarab yo'naladi.

Ikki qutb sentriolalardan yo'nalgan mikronaychalar urchuq iplarini hosil qiladi. Profaza davomida yadro qobig'i parchalanib ketadi, yadrocha yo'qoladi. Endi sentriolalar va ularni tutashtirib turuvchi urchuq iplari sitoplazma o'rtasiga siljiydi. Sitoplazmada erkin joylashgan xromosomalar hosil bo'lishi davomida ular urchuq ipiga o'ralashib ketadi. Urchuq ipining to'la shakllanib borishi bilan sentriolaning har bir jufti bir-biridan uzoqlashib boradi, hujayra anchagina cho'ziladi.

Metafaza. Bu davrning boshlangich bosqichida xromosomalar hujayraning ekvator qismiga siljiydi. So'ng barcha xromosomalar sentromerlari bilan hujayra ekvatori yuzasi bo'ylab

joylashadi. Metafazada xromosoma to'liq shakllanadi. Shunday qilib, ko'z ilg'amas darajada va o'ta uzun xromatin ipchasining spirallashishi va batartib taxlanishi oqibatida zich, qisqa xromosomalar hosil bo'ladi.Har bir sentromera xromosoma yelkalaridan turli masofada joylashib har xil kattalikdagi yelkalarga ega bo'lgan xromosomani shakllantiradi. Hujayraning har bir qutbidan yo'nalgan urchuq iplari bitta xromosomaning sentromerasiga ikki tomondan birikadi.

Anafaza. Har bir xromosoma bo'yلامasiga alohida qiz xromatidasiga ajrala boshlaydi va sentromera ham ajraladi. Xromosomaning sentromera sohasidan xromatidlarga ajralib, hujayraning ikki qutbga tortilishi ro'y beradi. Bu tortilishni sentromeraga birikkan, urchuq iplarining tarkibiga kiruvchi qisqarish xususiyatiga ega

bo'lgan aktin va boshqa oqsillar taminlaydi. Shunday qilib, xromatida tarzidagi qiz xromosomalari hujayraning ikki qutbiga tengma-teng miqdorda taqsimlanadi.

Telofaza. Bo'linayotgan hujayraning o'rtasida siqqlik paydo bo'la boshlaydi. Bir ipli xromosoma - xromatida spirallari yoyiladi - dispirallashadi va interfaza holatidagi xromatin ko'rinishiga ega boladi. Hujayradagi siqqlik butun hujayrani qamrab, bo'linish botiqligini hosil qiladi. Hujayrada yadrocha shakllanadi va yadro qobigi hosil bo'ladi. Botiqlik chuqurlashib, hujayrani bo'ladi, ya'ni sitoplazmaning bo'linishi ro'y beradi va hujayra 2 ta qiz hujayrasiga ajraladi. Doimo hamma hujayralarda ham mitoz jarayonidagi davrlar oxirigacha davom etavermaydi

Ayrim hujayralarda xromosoma soni bir necha marta ortadi va bu jarayon G_2 dan so'ng hujayra yadrosining qobigi saqlangan holda, urchuq iplari hosil bo'lmasdan ro'y beradi. Ba'zan yadro profazadagi kabi erib ketsa-da, xromosomalar hujayra qutblariga tarqalmaydi va xromosomalarining xromatidalarga ajralishi bilan qayta yadro qobig'i hosil boiadi. Natijada xromosoma soni ona hujayranikiga nisbatan 2 marta ortgan *poliploid* hujayra hosil boiadi. Bu jarayonga *endomitoz* deyiladi. Poliploid hujayraning o'zi xuddi shunday jarayonni qayta o'tab xromosoma sonini yana ham orttirib olishi mumkin.

Ba'zan mitoz jarayonining oxirgi davrida qutblangan xromosomalar atrofida alohida yadrolar hosil boiadi-yu, lekin sitokinez kechmaydi. Buning oqibatida ikki yadroli (har bir yadrosidagi xromosomasoni ona hujayrasiga teng bo'lgan, diploid) hujayra paydo bo'ladi.

Jinsiy usulda ko'payish

(Meyoz—kamayish)

Birlamchi jinsiy hujayra meyoza bolinishga kirishadi. Meyozda ketma-ket 2 marta (I va II) bolinish sodir boladi. Birinchi bolinish xromosoma soni ikki karra kamaygan 2 qiz hujayra hosil bo'ladi. Ikkinchisi xromosomasi gaploid to'plamga ega bo'lgan har bir hujayradan ikkitadan hujayra hosil boladi. Ikkinchi bolinish jarayoni xuddi hujayraning mitoz bo'linishi kabi ro'y beradi. Meyoz jarayoni mitoz bolinishdan keskin farq qiladi.

Meyoz bo'linish ketma-ket ro'y beradigan, murakkab bosqichlardan iborat jarayondir. Meyozda interfazadan so'ng birinchi bo'linishdagi profaza I, metafaza I, anafaza I, telofaza I sodir bo'ladi va so'ngra hujayra qayta interfazaga kirmaydi. Bunday hosila hujayrada interfazaga xos bolgan DNK replikatsiyasi sodir bo'lmaydi, hujayra yana to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi bo'linishga kirishib ketadi. Shuning uchun ham bu oraliq interfaza emas, *interkinez* deyiladi.

Interkinez o'ta qisqa vaqtni egallaydi. So'ng, ikkinchi bo'linish boshlanib ketadi va unda ham profaza II, anafaza II, metafaza II, telofaza II bosqichlari mavjuddir.

Interfazani boshidan kechirgan hujayrada DNK molekulasi replekatsiyasi ro'y berib, hujayra genetik materiali diploid ($2n$) to'plam xromosomaga ega bo'lsa-da, DNK miqdori ikki hissa oshgan ($4s$) bo'ladi.

Profaza I ning davrida 2 xromatidadan iborat xromosoma iplari ingichka, nozik ipchalar hosil qiladi. Xromosomaning zichlashishi, spirallashishi bilan xromatida iplari

ko'rina boshlaydi va xromomerlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikkita gomologik xromosoma o'zaro tortiladi va bir-biriga xromomerlari bilan jipslashadi. Bu jarayonga xromosomalarning konyugatsiyasi deyiladi. Xromosomalarning spirallanishining davom etishi bilan ular yo'g'onlashadi. yo'g'onlashish gomologik xromosomalarda bir vaqtda ro'y beradi...

O'zaro chirmashib ketgan gomologik xromosomalarning ayrim qismlarning almashishi — chalkashishi (krossingover) ro'y beradi.

Hujayradagi tetradalar soni xromosomaning gaploid to'plamiga teng bo'ladi.

Xromosomalardagi spirallashish jarayoni davom etaveradi. Shu vaqtga kelib yadrocha yo'qoladi, yadro membranasi parchalanadi va bo'linish duki korina boshlaydi.

Metafaza I da gomologik xromosomasi ikkala sentromerasi bilan hujayra bo'linish duklarining ekvator sathiga siljiydi hamda har bir xromosomaning sentromerasiga, alohida qutbdan yo'nalgan bo'linish duki birikadi

Anafaza I da har biri 2 ta xromatidadan tashkil topgan gomologik xromosoma bir-biridan itarilib ajraladi va ikki qutbga tortiladi — hujayradagi bor xromosomalarning tengma-teng ikki qutbga bolinadi. Mitozdagi anafazada bitta xromosomadagi 2 ta xromatida bir-biridan ajralib qutbga bolinsa, meyoza da har bir qutbga yaxlit xromosoma — har bir xromosoma alohida ajralib tarqaladi.

Telofaza I jadal ro'y beradi va qutbdagi har bir xromosoma to'plami atrofida yadro shakllanadi. Telofaza yakunida gomologik xromosomalarning alohida hujayralarda joylashadi. Hujayradagi xromosoma soni 2 marta kamayadi (reduksiya bo'ladi) va xromosomalarning gaploid to'plamiga ega ikkita qiz hujayra hosil boiadi.

Interkinezda xromosoma sust despirallashadi, xromosoma reduplikatsiyasi ro'y bermaydi.

Profaza II da xromosomalarning ko'pi chalkashib qolganday ko'rinadi, chunki har bir xromosomadagi qiz xromatidalar bir-biridan ajralib (itarilib), sentromer sohasidagina tutashadi.

Metafaza II da xromosomalarning (gaploid sondagi) xuddi metafazadagi kabi, ekvator sathida joylashadi va har bir xromosomaning sentromerasi ikkiga ajraladi.

Anafaza II da xromosomadagi ikkita xromatida (diada)ning har biri qutbga tortiladi. Shu xromatida bo'lajak , ikkinchi bo'linish natijasida hosil bo'lgan qiz hujayra xromosomasining xuddi o'zginasidir. Bu xromosoma bitta xromatida dan iborat.

Telofaza II da xromatidalarning qutbga tortilishi yakunlanib, yadro qobigining shakllanishi va sitokinez ro'y beradi.

Demak, meyoza ning birinchi bo'linish bosqichida, bir-biriga jipslashgan ikkita gomologik xromosomaning har biri alohida qiz hujayrasiga o'tib, xromosomaning soni ikki marta kamaygan ikkita qiz hujayra hosil bolsa, ikkinchi bolinishda shu har bir

qiz hujayrasidan ikkita, xromosomalar soni o'zgarmagan, ammo xromosomasi xromatida - iborat bolgan gaploid to'plamli hujayralar hosil boladi. Natijada meyozga kirishgan har bir hujayradan 4 ta gaploid xromosoma to'plamiga ega bolgan jinsiy hujayra yetiladi

Meyoz jarayoni muhim biologik ahamiyatga ega. Meyoz natijasida hosil bolgan hujayra gaploid xromosomaga ega bo'lib, uruglanish oqibatida hujayra diploidligini tiklab oladi. Shu boisdan organizm har bir individga mos xromosoma soniga egaligini doimo saqlab qoladi.

Meyozda ota-ona xromosomalarining hosil hujayralariga mustaqil ravishda taqsimlanishi har bir jinsiy hujayraga ota-ona belgilarining turlicha olishini ta'minlaydi

Bosqichlar	Mitoz	Meyoz
Interfaza	DNK sintezi ro'y beradi va xromatida ikkilanadi.	Mitoz kabi
Profaza 1	Xromosoma zichlashadi. Xromatindan xromosomaning shakllanishi boshlanadi. yadrocha, yadro qobig'i yo'qoladi. Mitoz kalavasi shakllanadi. 2n 4s	Xromosomaning zichlashishi ro'y beradi. Gomolog xromosomalar juftlashadi, ular bivalentlar hosil qiladi, ayrim qismlariaro almashinish — krossingover ro'y beradi. 2n4s
Metafaza 1	Xromosomalar ekvator bo'ylab joylashadi Kalava iplari sentromeraga birikadi.. 2n 4s	tetrada hosil qilgan xromosomalar ekvator bo'ylab joylashadi 2n4s
Anafaza 1	Har bir xromosomaning xromatidasi alohida qutbga ajraladi. 4n 4s	Tetrada hosil qilgan gomologik xromosomalar bir-biridan alohida qutbga ajraladi. Turli bivalentlardagi xromosomalarning mustaqil ravishda qutbga tarqalishi ro'y beradi. 2n4s
Telefaza 1	Har biri diploid yadroli, o'xshash 2 qiz hujayra shakllanadi va mitoz yakunlanadi. Yadrocha, yadro qobig'i paydo bo'ladi. 4n 4s---2n 2s	2 ta gaploid qiz hujayra shakllanadi. Bu hujayralar genetik jihatdan o'zaro farqlarga ega bo'ladi. 2n4s----1n2s
Profaza II	-----	Gaploid qiz hujayra interfazasiz — interkinez holida qayta bo'linishga kirishadi. Xromosomalar zichlashadi.

		1n2s
Metafaza II	-----	Xromosomalar sentromerlari bilan ekvator bo'ylab joylashadi (mitozning metafazasi kabi). 1n2s
Anafaza II	-----	Har bir xromosomaning xromatidasi alohida qutbga ajraladi (mitoz anafazasi kabi). 2n2s
Telefaza II	-----	Genetik jihatdan o'zaro farq qiluvchi, xromosomasi gaploid to'plamga ega bo'lgan 4 ta qiz hujayra shakllanadi. 1n1s

Mitoz va meyoza taqqoslash jadvali

Mitoz siklida, mitoz va meyoza irsiy axborot o'zgarishlari
(n- xromosoma gaploid to'plami, c — DNK gaploid miqdori).

Mitoz sikli		
davri (G ₁) — 2n2c	-----	O'sish, oqsil sintezi, transkripsiya
davri (S) — 2n4c	-----	DNK ikki hissa ortishi (replikatsiya)
davri (G ₂) — 2n4c	-----	Transkripsiya, tubulin sintezi

Hayvonlarda gametogenez

Jinsiy hujayralarning hosil bo'lish jarayoni **gametogenez** deyiladi.

Erkak jinsiy hujayralarni hosil bo'lishi — **spermatogenez**,

Urg'ochi jinsiy hujayralarni hosil bo'lishi — **oogenez** deyiladi.

Gametogenez to'rtta bosqichdan iborat

- ko'payish, o'sish, yetilish va shakllanish

Hayvonlarda jinsiy hujayralar xuddi somatik hujayralardek embrional hujayralardan rivojlanadi. Murakkab hujayralaridan bora-bora jinsiy bezlar va jinsiy hujayralar taraqqiy qiladi..

Erkaklarda **spermatagoniy**, urgʻochi organizmlarda **oogoniy**

Spermatogenez

Urugʻdondagi maxsus toʻqima oldin mitoz yoʻli bilan bir necha marota boʻlinib, oʻlchamlari kichraygan spermatogoniylarni hosil etadi **koʻpayadi**. Shundan soʻng **oʻsish** bosqichi boshlanadi. Ular yana mitoz yoʻli bilan boʻlinib birinchi tartibli spermatositlarga aylanadilar. **Yetilish** bosqichida birlamchi spermatosit hujayralari meyoz boʻlinishga oʻtadilar. Mitozning 1-boʻlinishdan soʻng ikkita ikkinchi tartibli spermatositlar hosil boʻladi. 2- boʻlinish natijasida 4 spermatidalar rivojlanadi. **Shakllanish** bosqichida spermatidalarning spermatozoidga aylanishi kuzatiladi. Bu jarayonga yadro va sitoplazmaning barcha elementlari qatnashadi.

Yetilgan spermatozoid **boshcha, boʻyin va dum** qismlaridan tashkil topadi.

Spermatozoidning **bosh qismida** Goldji apparatidan hosil bolgan **akrosoma** joylashadi.

U fermentlarga boy boʻlib, urugʻlanish paytida tuxum hujayra qobigʻini eritadi.

Akrosomadan keyin **bosh qismida yadro** joylashgan.

Spermatozoidning **boʻyin qismida sentriola, mitoxondriyalar** boʻladi.

Dum qismi spermatozoidning harakatlanishini taʼminlaydi.

Oogenez

Urgʻochi organizmlarning jinsiy hujayralarini rivojlanishi **oogenez** deyiladi.

Oogenez jarayonining spermatogenezdan farqi shundan iboratki,

birinchidan, birlamchi oosit (oosit I) ning **oʻsish bosqichi** koʻproq davom etadi.

Ikkinchidan oositda oziq moddalarning yigʻilishi roʻy beradi. Oosit I meyozning 1-boʻlinishidan soʻng ikkita hujayra - biri yirik oosit II, ikkinchisi mayda oosit II hosil etadi. U birinchi tartibli yoʻnaltiruvchi tana deb ataladi. 2-boʻlinishdan soʻng oosit II dan bitta yirik ootida va bitta mayda ootida, birinchi tartibli yoʻnaltiruvchi tanadan esa ikkita mayda ootida hosil boʻladi. Shunday qilib meyozning 1 va 2 boʻlinishidan soʻng toʻrtta ootidalar hosil boʻladi. Ulardan uchasi mayda, bittasi yirik ootida boʻladi. Faqat yirigi – tuxum hujayra keyingi rivojlanish va urugʻlanishga layoqatlidir. Qolgan uchta mayda ootidalar yoʻnaltiruvchi tana boʻlib, keyinchalik yemiriladi.

Tuxum hujayra yirik, sitoplazmaga boy, qobiq bilan oʻralgan, uni tashqarisida koʻplab follikul hujayralar joylashgan boʻladi.

Gulli oʻsimliklarda sporogenez va gametogenez

Oʻsimliklarda jinsiy hujayralarning shakllanish jarayoni 2 bosqichga

Boʻlinadi: 1- bosqich — **sporogenez** — gaploid sporalaming hosil boʻlishi;

2-bosqich -- **gametogenez** — gametalarning rivojlanishi bilan tugallanadi. O'simliklarda **mikrosporalar** hosil bo'lish jarayoni **mikrosporogenez**, **megasporalarning** hosil bo'lish jarayoni esa **megasporogenez** deb ataladi.

Changchi hujayraning hosil bo'lishi:


Mikrosporogenez va mikrogametogenez

Yosh changdonning to'qimasida arxeospora hosil bo'ladi.

Arxeospora meyoziy 1-bo'linishdan keyin ikkita spora, 2- bo'linishidan so'ng to'rtta **gaploid** to'plamli **mikrosporalar** hosil qiladi. Ular sporalarning tetradasini deb ataladi.

Mikrosporalar hosil bo'lgandan so'ng mikrogametogenez boshlanadi. Har bir mikrospora **mitoz** bo'linishi oqibatida vegetativ va generativ hujayralarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Keyinchalik vegetativ hujayra bo'linmaydi. Unda oziq moddalar to'planadi, ular generativ hujayraning bo'linishini taminlab beradi. Generativ hujayra yana bo'linib, ikkita spermiyalar rivojlanadi. Yetilgan chang donachasi bitta vegetativ hujayra va ikkita generativ yadrodan tashkil topadi.



Urug'chi hujayraning hosil bo'lishi


Megasporogenez va megagametogenez.

Yosh urug'kurtakning qavatida arxeosporalar hujayra yetishadi. U **meyoziy usulda** bo'linib bitta yirik, bitta mayda sporani hosil qiladi. Bu sporalar **meyoziy usulda** bo'linish natijasida bitta yirik, uchta mayda spora rivojlanadi. Uchta maydasi keyinchalik yemiriladi. Qolgan bitta yirik spora **gaploid** to'plamli xromosomaga ega bo'ladi. Bu spora uch marotaba **mitoz usulda** bo'linib 8 yadroli murtaq xaltachasini hosil qiladi.

Murtaq xaltachasining mikropile (spermiyalar kiradigan joy) qismida to'rtta yadro joylashib, bittasi tuxum hujayrani hosil qiladi, to'rtinchi yadro bo'lsa murtaq xaltachasini

markazidan o'rin oladi. Murtaq xaltachasini mikropilega qarama-qarshi qismida ham to'rtta yadro joylashib, ulardan bittasi markazga intilib mavjud markazdagi yadro bilan qo'shilib diploid to'plamli **markaziy yadroni** tashkil qiladi. Murtaq xaltachasining pastki tomonida qolgan uchta yadro qo'shiladi. Shunday qilib murtaq xaltachadagi 8 hujayradan 6 tasi **gaploid** xromosomal, murtaq xaltachasini markazidagi ikkitasi o'zaro qo'shilib **diploid** xromosomal hujayraga aylanadi. Chang hujayrasidagi

spermiyaning biri murtak xaltasidagi tuxum hujayra bilan, ikkinchisi esa markaziy yadro bilan qo'shiladi Urug'langan tuxum hujayrada xromosomalarning diploid



to'plami tiklanadi va u urug'ning murtak qismini hosil qiladi.

Murtak xaltasidagi markaziy yadro bilan spermiya qo'shilishidan xromosomalarning triploidi hosil bo'lib, undan urug'ning **endospermasi** rivojlanadi.

Chang naychasidagi bir spermiyaning tuxum hujayra, ikkinchisining markaziy yadro bilan qo'shishi **qo'sh urug'anish** deyiladi.

U 1898-yilda rus olimi **S.G.Navashin** tomonidan kashf qilingan.

“HUYAYRALARDA MODDA VA ENERGIYA ALMASHINUVI” BOBINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Reja:

- 1.Modda va energiya almashinuvi haqida ma'umot
2. Modda va energiya almashinuvi bo'yicha masala-mashqlar yechish

Moddalar almashinuvi. Adenozintrifosfat kislota — ATF

Moddalar almashinuvi funksiyalari. Tirik hujayra atrof muxitdan moddalarni yutib yana shu atrof muhitga ularni chiqarib turadi.Odam hujayralari kislorod. suv, glyukoza, aminokislotalar, mineral tuzlar, vitaminlarni o'ziga yutib, karbonat angidrid, suv, mochevina, siydik kislota va boshqalarni tashqariga chiqarib turadi

Odam hujayralariga xos moddalar boshqa ko'pgina tirik organizm hujayralariga: barcha hayvon hujayralari, ba'zi mikroorganizmlarga ham xosdur. Yashil o'simliklar hujayralaridagi moddalar tabiati ancha boshqacha bo'ladi: ularda ozik moddalarni karbonat angidrid va suv tashkil etadi, kislorod esa tashqariga chiqarib turiladi.

Moddalar almashinuvi ikkita funksiyani bajaradi.

Birinchi funksiyasi hujayrani qurilish materiali bilan ta'minlab borish. Xujayraga kirib turadigan moddalardan — aminokislotalar, glyukoza, organik kislotalar, nukleotidlardan — hujayrada oksillar, uglevodlar, lipidlar. nuklein kislotalar to'xtovsiz sintezlanib turadi. Bulardan hujayraning tanasi membranalari, organoidlari shakllanadi. O'sib borayotgan, yosh xujayralarda sintez reaksiyalari ayniqsa aktiv boradi. Birok, o'sish va rivojlanishni poyoniga yetgan hujayralarda ham moddalar sintezi tinmay davom etadi, chunki hujayraning xayoti davomida uning ximiyaviy tarkibi qayta qayta yangilanadi.

Xujayraning tuzilishiga hamda tarkibining yangilanib turishiga yordam beradigan reaksiyalar yig'indisi plastik almashinuv deb ataladi (yunonchadan «plastikos» yopishtirib yasalgan, haykal qilingan degan ma'noni beradi).

Ikkinchi funksiyasi hujayrani energiya bilan ta'minlashdir Xayot faoliyatining har qanday ko'rinishi (harakatlanish, moddalarni sintez qilish, issiqlik chiqarib turish va boshqalar) energiya sarflashni talab etadi. Xujayrani energiya bilan ta'minlab borish uchun unga kirib turadigan moddalarning parchalanishi natijasida

ajralib chiqadigan ximiyaviy reaksiyalar energiyasidan foydalaniladi. Bu energiya boshqa turdagi energiyaga aylanadi. Xujayrani energiya bilan ta'minlab boradigan reaksiyalar yig'indisi energiya almashinuv deb ataladi.

Plastik almashinuv bilan energiya almashinuv bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bir tomondan, plastik almashinuvning xamma reaksiyalari energiya sarflashni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, energiya almashinuv reaksiyalarining yuzaga chiqishi uchun fermentlar to'xtovsiz sintezlanib borishi zarur, chunki fermentlar molekulalarining "xayoti" qisqa bo'ladi. Plastik va energiya almashinuvlar orqali hujayra tashki muxit bilan bog'lanadi. Bu proseslar hujayra xayoti saqlanib borishining asosiy sharti, uning o'sishi, rivojlanishi va funksiyalarini yuzaga chiqarish manbaidur. Tirik hujayra ochiq sistemadir, chunki hujayra bilan atrof muxit o'rtasida moddalar bilan energiya tinmay almashinib turadi.

Hujayradagi energiya va plastik almashinuvlarda ATF ning roli.

Bir hujayrada adenozintrifosfat kislota (ATF) bor. ATF hujayraning energiya manbai hisoblanadi.

Ximiyaviy tuzulishi jihatidan ATF nukleotidlar qatoriga kiradi Xar bir nukleotidda bo'lganidek, unda ham azot asosi (adenin), uglevod (riboza) va fosfat kislota qoldig'i bor SHu bilan birga ATF odatdagi nukleotidlardan katta farq qiladi: unda bitta fosfat kislota qoldig'i o'rniga uchta fosfat kislota qoldig'i bo'ladi.

Ma'lumki, hujayra moddasining normadagi reaksiyasi neytral reaksiyaga yaqin. Ravshanki, hujayrada ATF kislota ko'rinishida emas, balki tuz ko'rinishida bo'ladi. Demak, bunday sharoitda undagi fosfat kislota

qoldiqlarida —OH gruppalar o'rniga manfiy zaryadlangan kislorod atomlari (—O) bo'ladi. Bir biriga yaqin joylashgan bir ishorali zaryadlar bir-biridan itariladi. SHunday qilib, ATF ning molekulyar strukturasi mustahkam emas. O'ziga xos fermentlar ta'siri ostida u gidrolizga uchraydi, ya'ni suv molekulasini biriktirib olib, parchalanadi:



Bunda molekulaning oxiridagi fosfat qoldig'i fosfat kislotani beradi. ATF esa ADF ga, ya'ni adenozindifosfat kislotaga aylanadi Bu reaksiya energiya ajralib chiqishi bilan birga davom etib boradi (40 kJ/mol atrofida).

ATF hujayradagi energiya almashinuvida asosiy rolni o'ynaydi. U xar qanday hujayra funksiyasini energiya bilan ta'minlab beruvchi bevosita manbadir. Harakatlanish, biosintez, elektr paydo qilish, yog'du sochish va b.q

	Tashqi	Oraliq	Oxirgi
Kechadigan joyi	Hazm organlarida	Hujayralarda	Ayirish organlari
Kechadigan jarayon	Katabalizm (dissim)	Anabalizm (assim)	
Ishtirok etuvchi qism	Ferment, ichak, bez, jig'ar Misol; Oqsil-pepton-	Ferment, organoidlar Misol; fotosintez, biosintez, translatsiya	CO ₂ , CO(NH ₂), Qoldiq azot.

	poli-oli-dipeptid-aminokislota		
--	--------------------------------	--	--

Hujayrada energiya almashinuvi. ATF sintezi

ATF sitoplazmada, asosan mitoxondriyalarda sintezlanadi, shuning uchun ham mitoxondriyalar «kuch stantsiyalari» deb ataladigai bo'ldi. Odam ko'pgina xayvonlar va ba'zi mikroorganizmlarning xujayralarida ATF sintezi uchun energiya berib turadigan asosiy modda glukozadir.

Glyukozaning xujayrada parchalanib, buning natijasida ATF sintezlanishi ketma-ket keladigan ikkita bosqich orqali yuzaga chiqadi.

Birinchi bosqich glikoliz yoki kislorodsiz (achish) parchalanish deb ataladi.

Ikkinchi bosqichni kislorodli parchalanish deyiladi.

qoladi+ajraladi=jami

Glikoliz: $C_6H_{12}O_6 + 2ADF + 2H_3PO_4 \longrightarrow 2C_3H_6O_3 + 2ATF + 2H_2O + 80 \text{ kJ} + 120 \text{ kJ} = 200 \text{ kJ}$

Glyukoza fosfat kislota sut kislota,
(40%)+(60%)=100%

Glikolizda kislorod ishtirok etmasligi tenglamadan ko'rinib turibdi (shu u.n kislorodsiz bosqich deb ataladi).

Shu bilan bir vaqtda glikolizda albatta ishtirok etadigan modda ADF va fosfat kislotadir. SHu ikkala modda hamisha bo'ladi, chunki xujayraning xayot-faoliyati natijasida ular doimo xosil bo'lib turadi. Glikolizda glyukoza molekulasini parchadanib, 2 molekula ATF sintezlanadi.

Energiya yig'indisi katta miqdorga — 200 kJ molga yetadi. Bu energiyaning bir qismi (60%) issiklik ko'rinishida sochiladi, bir qismi esa (40%) ATF shaklida to'planib boradi.


Glikoliz protsessi barcha xayvon xujayralarida va ba'zi mikroorganizmlarning xujayralarida boradi

Kislorodli parchalanish.

Glikoliz poyoniga yetganidan keyin ikkinchi bosqich — kislorodli parchalanish boshlanadi.


Kislorodli protsessda fermentlar, suv, oksidlovchilar. Elektronlarni tashib beruvchilar va molekulyar kislorod ishtirok etadi. Kislorodli protsessning normal borishi uchun asosiy shart mitoxondriya membranalarining shikastlanmagan bo'lishidir

Glikolizning oxirgi mahsuloti — uch uglerodli organik kislota mitoxondriyalarga kirib, u yerda fermentlar ta'siri ostida suv bilan reaksiyaga kirishadi va batamom parchalanadi:



Xosil bo'lgan uglerod (IV) oksid mitoxondriyalar membranasidan bemalol o'tib, atrof muxitga chiqib ketadi. Vodorod atomlari membranaga o'tkaziladi, bu yerda u fermentlar ta'siri ostida oksidlanadi, ya'ni elektronlarini yo'qotadi


Kislorodli parchalanish ;
qoladi+ajraladi=jami



$$(55.4\%) + (44.6\%) = 100\%$$

2600kJ energiyaning 55.4% ATF tarkibiga birikadi, 44,6% issiqlik ko'rinishida sochiladi.

Kislorodsiz va kislorodli protsesslar tenglamalarini jamlab, glyukozaning to'liq parchalanish reaksiyasini tuzamiz:
qoladi + ajraladi = jami



(

$$54.3\%) + (45.75\%) = 100$$

Glyukozaning molekulyar massasi 180, ATF niki esa 504ga teng.

Energiya almashinuvida yuz beradigan bosqichlar.

	Tayyorgarlik bosqichi	To'liqsiz, (O ₂ siz, glikoliz)	To'liq, (O ₂ li)
Kechadigan joyi	Ichak, hazm organlarida	Sitoplazma	Mitoxondriya
Ishtirok etadiganlar	Lipaza, amilaza, pepsin	Asosan glyukozani parchalovchi fermentlar	Mitoxondriya, O ₂ , Ferment, sitoxrom
Parchalanadigan mahsulot	Biomolekulalar Oqsil, yog', uglevod.	Glyukoza	Sut kislotasi
Parchalanish mahsuloti	Aminokislota, glyukoza, Glitserin, yog' kislotalar.	Sut kislotasi	Suv va CO ₂

O'simlik hujayrasida plastik va energetik almashinuv xususiyatlari

Fotosintez. O'simlik va xayvonlar hujayralaridagi plastik va energetik almashinuvlar bir-biriga o'xshash. O'simlik hayvonlarda ham energetik almashinuvning o'sha bosqichlari — kislorodsiz va kislorodli protsesslar boradi. Biroq, xlorofilli o'simliklarda, bundan tashqari, jonli tabiat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos protsesslar ham kechadi. O'simlik hujayralari oddiy anorganik birikmalardan organik birikmalar sintezlash va buning uchun quyosh nurlaridan foydalanishga layoqatlidir. Organik birikmalarning “quyosh energiyasi hisobiga sintezlanib borishi fotosintez deb ataladi”

Fotosintez quyidagi yig'indi tenglama bilan ifodalanadi:



Bu protsess davomida energiyasi kam moddalar — uglerod (IV)-oksid va suvdan energiyaga boy modda — glyukoza uglevodi (C₆H₁₂O₆) hosil bo'ladi. fotosintez natijasida molekulyar kislorod ham hosil bo'ladi.

Fotosintez ikkita fazadan iborat: Qorong'ulik va Yorug'lik


Fotosintezniig yorug'lik fazasi.

Fotosintezda asosiy rolni xlorofill — quyosh nuri energiyasini ximiyaviy bog'lanish energiyasiga aylantiradigan organik modda o'ynaydi Fotosintezda xlorofill yorug'lik yutadi, elektronlari g'alayonlanib potensial energiyaga ega bo'lib qoladi va vodorod ioni bilan birikib vodorod atomini hosil qiladi: $H^+ + e^- \longrightarrow H$.

Fotosintez protsessi xloroplastning ko'rinadigan yorug'lik bilan yoritilishidan boshlanadi. Foton xlorofill molekulasiga tushib, uni qo'zg'algan xolatga keltiradi. Elektronlarini yo'qotishi natijasida suv molekulalari protonlar va kislorod atomlariga parchalanadi.

Gidroksil ioni o'z elektronini yo'qotib erkin OH radikaliga aylanadi: $OH^- \longrightarrow e^- + OH$.

Erkin OH radikallari faol bo'lganligi sababli o'zaro ta'sirlashib molekular kislorod va suv hosil qiladi:



Bu jarayonlar yorug'lik ta'sirida kechganligi sababli *fotosintezning yorug'lik bosqichi* deb ataladi. Yorug'lik bosqichida suvning parchalanishi (fotoliz) natijasida molekular kislorod (O_2) hosil bo'ladi. G'alayonlangan elektronlar energiyasining bir qismi ATF sinteziga sarflanadi.

Shunday qilib, quyosh nurlari energiyasi uch xil protsessni: suv parchalanishi natijasida molekulyar kislorod hosil bo'lishi, ATF sintezi, atomlar vodorod hosil bo'lishi protsesslarini yuzaga chiqaradi. Mana shu uchala


protsess yorug'likda bo'lib o'tadi va fotosintezning yorug'lik fazasini hosil qiladi.

Fotosintezning qorong'ulik fazasi.

Fotosintezning keyingi reaksiyalari uglevodlar hosil bo'lishi bilan bog'likdir. Bular yorug'da xam, qorong'ida ham boraveradi va qorong'ilik fazasi deb ataladi. Fotosintezning qorong'ilik fazasi ketma-ket o'tadigan bir qancha reaksiyalardan iborat. Bu reaksiyalar natijasida uglerod (IV)-oksid va suvdan uglevodlar hosil bo'ladi.

Qorong'ilik reaksiyalari uchun xloroplastga dastlabki moddalar va energiya to'xtovsiz kelib turadi. Uglerod (IV)-oksid bargga atrofdagi atmosferadan kelib kiradi, suvning parchalanishi natijasida vodorod fotosintezining yorug'lik fazasida hosil bo'ladi. Fotosintezning yorug'lik fazasida sintezlanadigan ATF energiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Ana shu moddalarning hammasi xloroplastga yetkazib kelinadi, uglevodlar sintezi ham shu xloroplastda ro'y beradi.

Fotosintezning umumlashtirilgan reaksiyasi:



MONODURAGAY, DIDURAGAY VA POLIDURAGAY CHATISHTIRISHGA OID MASALALAR YECHISH

Reja.

1. Monoduragay chatishtirishga oid masallar yechish

2. Diduragay chatishtirishga oid masallar yechish


Mazuning maqsadi: Talabalarda monoduragay va diduragay chatishtirishga oid masalalar yechish haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijalari: Monoduragay chatishtirishga oid masalalar yechishni izoxlaydi. Diduragayga oid masalalar yechishni izoxlaydi


Blits savol.

1. Monoduragay chatishtirish deb nimaga aytiladi?
2. Diduragay chatishtirish deb nimaga aytiladi?
3. Monoduragay chatishtirishda fenotip va genotip jixatdan nisbat qanday bo'ladi?.
4. Diduragay chatishtirishda fenotip va genotip jixatdan nisbat qanday bo'ladi?

Monoduragay chatishtirishga oid masalalar




4-masala. Odamda qaysi (novchalik yoki pakanalik) belgisi dominantlik qilishini aniqlang. Bu oiladagi ota, ona va bolalarning genotipini aniqlang.



5-masala


1. Quyondarda junning qaysi rangi dominantlik qiladi?
2. Junning rangi bo'yicha ota-onalarning (P) va birinchi bo'g'in (F₁) duragaylar genotipini aniqlang.
3. Chatishtirishdan olingan natija qaysi qonunga misol bo'ladi?



6-masala


Monoduragay chatishtirishga oid masalalar

8-masala Berilgan rasmni ko'rib chiqing. Kalamushlarda qaysi jun rangi dominant ekanligini aniqlang.



Ota-ona organizmlar gomozigota holatda ekanligini e'tiborga olgan holda chatishtirish sxemasini tuzing va F_1 va F_2 duragaylarining genotipini toping.


9-masala No'xotlarda urug'ning silliq shakli burishgan shakl ustidan dominantlik qiladi. Quyida berilgan sxemasini ko'rib chiqing.



a) Ota-ona, birinchi (F_1) va ikkinchi (F_2) avlod duragaylarining genotipini aniqlang.

b) Ushbu chatishtirishda qaysi qonunga mos holda nisbat kuzatilmoqda?


10-masala Ma'lumki, no'xatning silliq shakli burishgan shakl ustidan dominantlik qiladi.



Agar burishgan urug'li no'xat o'simligi changi bilan silliq shaklli mevaga ega o'simlik bilan chatishtirilganda, birinchi bo'g'in duragaylarining 50% burishgan, 50% silliq urug'li bo'ldi. Ota-ona organizmlarining genotipini aniqlang.

Diduragay chatishtirishga oid masalalar


1-masala No'xot o'simligida urug'ning sariq (A) rangi yashil rangi (a) ustidan, silliq shakli (V) burishgan shakli (v) ustidan dominantlik qiladi. Rasmda berilgan chatishtirish sxemasidan foydalanib, quyidagilarni aniqlang.




a) Ushbu belgilar bo'yicha gomozigota ota-onalarni chatishtirilganda birinchi va ikkinchi bo'g'in duragaylarning genotipini aniqlang.

b) Ushbu chatishtirishda qaysi qonunga mos nisbat kuzatilmoqda?

2-masala Rasmdagi tasvirdan foydalanib, pomidor mevasining qaysi belgisi qizil yoki sariq rang, noxsimon yoki yumaloq shakli dominantlik qilishini aniqlang. Ota – onalarni, birinchi va ikkinchi avlod duragaylarining genotipini aniqlang.




3-масала Нўхат уруғининг сариқ (А) ранги яшил ранги (а) устидан, силлиқ шакли (В) буришган шакли (в) устидан доминантлик қилади.



Ота она организмлар ва биринчи бўғин дурагайларининг генотипини аниқланг.

4-масала Помидор ўсимлигида меванинг қизил ранги (А), сариқ ранг (а) устидан, меванинг юмалоқ шакли (В), ноксимон шакл (в) устидан доминантлик қилади.



Расмда берилган чатиштиришдан фойдаланиб, ота-она ва F₁ дурагайларининг генотипини аниқланг. Ушбу чатиштиришда белгиларнинг бир-биридан мустасно равишда тақсимланишини исботланг.

“Diduragay chatishtirish” mavzusi bo’yicha savollarga qisqacha javoblarni bering keyin mashq topshiriqlari

1. Gomologik xromosomalarning nechta jufti no’xat urug’larining shakl va rang irsiyatiga javob beradi? (Ikki juft)
2. Sariq va silliq navli urug’larda gametaalarning nechta turi shakllanadi? (Gametaaning bir turi)
3. AaVb genotipiga ega bo’lgan, sariq va silliq urug’li no’xatda gametaalarning nechta turi shakllanadi? (Gametaalarning trt turi)
4. AaVV genotipli no’xatda gametaalarning nechta turi mavjud bo’ladi? Ularni yozing. (Ikki turi: AV va aV)
5. Allel genlarining turli gomologik xrosoma juftlarida joylashgan ikkitali geterozigotalarni chatishtirganda fenotiplarning nechta turi paydo bo’ladi? (To’rtta)
6. Allel genlarining turli gomologik xrosoma juftlarida joylashgan ikkitali geterozigotalarni chatishtirganda genotiplarning nechta turi paydo bo’ladi? (Tqizta)

7. Sariq va silliq urug'li no'xatlarning barcha mavjud genotiplarini yozing. (AAVV, AaVV, AAVb, AaVb.)

8. Moviy ko'zli tq rangdagi sochli ayolning barcha mavjud genotiplarini yozing. (AAbb, Aabb.)

9. Qng'ir ko'zli va tq randagi sochli geterozigot ota-onalardan yorqin soch va moviy ko'zli bola tug'ilishi ehtimoli qanday? (1/16.)

**10. Allel genlar turli gomologik xromosomalarning uch juftida joydlashgan uchduragay chatishtirishda fenotiplar va genotiplar soni qancha bo'ladi? (Fenotiplar soni – 2^3 , genotiplar – 3^3 .)

“Mendelning uchinchi qonuni” mavzusi savollarga qisqacha javobo'larni bering yin mashq topshiriqlari

1. Diduragay chatishtirish. (Allel ikki juft belgilari bo'yicha farqlanadigan organizmarni chatishtirish.)

2. Yashil silliq no'xat va sariq silliq no'xat urug'larining mumkin bo'lgan genotiplarini yozing. (Yashil silliq urug'lar bilan – aaVV, aaVb; sariq silliq urug'lar bilan – AAVV, AAVb AaVb, AaVV.)

3. AaVb, AaVV, AAVb genotipli individlarda hosil bo'luvchi gametaa turlarini yozing. (Birinci individda: AV, Ab, aV, ab; ikkinchi individda: AV, aV; uchinchi individda: AV, Ab.)

4. Mendelning uchinchi qonun bajariladigan zaruriy shartlar. (rganilayotgan genlar turli gomologik xromosoma juftlarida joylashishi lozim.)

5. Mendelning uchinchi qonuni. (Bir biridan ikki (yoki undan ortiq) juft taqqoslama hususiyatlariga ko'ra farqlanadigan geterozigot individlarni chatishtirishda har bir juft boshqa juftlardan qat'iy nazar tliq dominantlikda 3:1 nisbatda belgilarga ajralib ketadi.)

6. Monoduragay va diduragay chatishtirish natijasida G_2 da necha turdagi genotiplar hosil bo'ladi? (Monoduragay chatishtirishda – 3ta (AA, Aa, aa), diduragay chatishtirishda – 3^2 ta.)

7. Monoduragay va diduragay chatishtirish natijasida G_2 da necha turdagi fenotiplar hosil bo'ladi? (Monoduragay chatishtirishda – 2ta, diduragay chatishtirishda – 2^2 ta.)

8. Sariq va silliq urug'li no'xatning (A_V_) fenotipi qanday genotiplarni yashiradi? (AAVV, AAVb, AaVb, AaVV.)

Blits o'yin

№	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1.	Genotip nima?			Fenotip deganda, organizm-larning tashqi, ichki belgi-xossalarning majmuasi tushu-niladi.
2.	Fenotip nima?			Individlar sonini gox ko'pa-yib gox kamayib turishi

3.	Rekombinogenez o'zgaruvchanlik nima?			Teritorial
4.	Tanlanish nima asosida amalga oshadi?			Meyoz jarayonidagi krossin-gover natijasi
5.	Aloxidalanish qanday xillarga bo'linadi?			Genotip esa irsiyat moddiy asoslarining yig'indisi bo'lib, u xromosomalar va ularda joylashgan genlardan iborat.
6.	Xardi vaynberg qonunini belgilang.			Teritorial va biologik
7.	Populyatsiya to'liqlini deb nimaga aytiladi?			Iogansen
8.	«Populyatsiyalar va toza liniyalar-dagi irsiylanish to'g'risida» Bu kimni asari			Populyatsiyaning genetik muvozanati
9.	Populyatsiyalarga mansub organizmlarning turli to'siqlar Bilan alohidalanishi qanda aloxidalinishga misol bo'ladi?			Fenotip bo'yicha
10.	Populyatsiyadagi geterogenlik qanday saqlanib boradi?			Mutatsiya va chatishish orqali

GENLARNING O'ZARO TA'SIRI. KOPMLEMENTAR VA EPISTAZ IRSIYLANISH

Reja

1. Genlarning komplementar ta'siriga oid masalalar yechish
2. Genlarning epistaz ta'siriga oid masalalar yechish
3. Genlarning polimer ta'siriga oid masalalar yechish
4. Pleyotropiyaga oid masalalar yechish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Genlarning uzaro va kup tomonlama ta'siriga oid masalalar yechishga oid tushunchalarni shakllantirish

O'quv faoliyatining natijalari: Genlarning komplementar ta'siriga oid masalalar yechishni izoxlaydi. Genlarning epistaz ta'siriga oid masalalar yechish izoxlaydi.. Genlarning polimer ta'siriga oid masalalar yechishni izoxlaydi. Pleyotropiyaga oid masalalar yechishni

GENLARNING KOMPLEMENTAR TA'SIRI BO'YICHA MASALALAR

Genlarning komplementar ta'sirida belgilar uch xil tipda irsiylanadi:

1. Dominant gen har qaysisi alohida belgini ifodalaydi, lekin birgalikda esa yangi belgini yuzaga chiqaradi. Bunday holatda digeterozigota organizmlar chatishtirilganda, F_1 da 9:3:3:1 nisbatda xilma-xillik vujudga keladi. Bunga misol qilib to'tiqushlarda pat rangini olish mumkin.

2. Komplementar dominant genlar har qaysisi alohida belgilarni yuzaga chiqarmaydi, birgalikda esa yangi belgini vujudga keltiradi. Bunday holatda digeterozigota organizmlar o'zaro chatishtirilganda, F_1 da 9:7 nisbatda xilma-xillik vujudga keladi. Bunga misol qilib, xushbo'y no'xotlarda gul rangini misol qilib olish mumkin.

3. Dominant genlarning bir jufti alohida belgini ifodalaydi, uning retsessivi boshqa belgini rivojlantiradi, ikkinchi juft dominant gen ham alohida belgini yuzaga chiqaradi, lekin uning retsessivi esa rangni yuzaga chiqarmaydi, natijada duragay oq rangli bo'ladi. Bunday holatda digeterozigota organizmlar o'zaro chatishtirilganda, F_1 da 9:3:3:4 nisbatda xilma-xillik vujudga keladi. Bunga misol qilib, sichqonlarda jun rangining irsiylanishini keltirish mumkin.

4. Bir organizmda mavjud bo'lgan 2ta allel bo'lmagan dominant genlar har qaysi alohida genotipda uchraganda, bir xil belgini ifodalaydi, birga esa, boshqa belgini yuzaga chiqaradi, natijada ikkita digeterozigotalarni chatishtirilganda avlodda belgini ajralishi 9:6:1 nisbatni yuzaga keltiradi. Bu holatga misol qilib, qovoqlarda meva shaklini misol qilib olish mumkin.

1-masala. Kulrang andaluz tovuqlari o'zaro chatishtirilganda, naslda qora, oq va kulrang patli formalar hosil bo'ldi.

A) bu hodisani qanday tushuntirish mumkin?

V) Agar kulrang tovuqlar qora patli xo'rozlar bilan chatishtirilsa, qanday natija chiqishi mumkin?

2-masala Xushbo'y no'xot o'simligi gultojbarglarining qizil bo'lishi 2 dominant gen ta'sirida ro'y beradi. Digeterozigota qizil gulli xushbo'y no'xot ikki allel gen bo'yicha gomozigota bo'lgan oq gulli retsessiv xushbo'y no'xot bilan chatishtirilgan. Hosil bo'lgan F_1 ning genotipi va fenotipini aniqlang.

3-masala Genotipi har xil bo'lgan oq pillali ipak qurtining kapalaklari chatishtirilgan. F_1 da duragaylar sariq pilla hosil qilgan. Ularning urg'ochi va erkak kapalaklari o'zaro chatishtirilsa, F_2 da ikki xil fenotipik sinf 9:7 nisbatda sariq va oq pillali ipak qurtlari hosil bo'lgan. F_2 duragay tut ipak qurti kapalaklarining genotipini aniqlang.

4-masala. Izohi: Tovuqlarda yong'oqsimon tojning rivojlanishi R- R genlariga bog'liq. R-rr genotipli parrandalarning toji gulsimon, rrP- genotipga ega organizmlarning toji no'xotsimon, rrpp genotipli parrandalar esa oddiy tojga ega.

Oddiy tojli tovuq yong'oqsimon tojli xo'roz bilan chatishtirish bo'yicha olib borilgan 4ta tajriba natijasida vujudga kelgan duragaylarni quyidagi tartibda tahlil qiling:

a) 50% yong'oqsimon, 50% gulsimon tojli formalar olindi.


b) hamma duragaylar yong'oqsimon tojli bo'ldi.

v) 25% yong'oqsimon, 25% gulsimon, 25% no'xotsimon, 25% oddiy tojga ega bo'ldi.

g) 50% yong'oqsimon, 50% no'xotsimon tojli formalar olindi.


Chatishtirishda ishtirok etgan organizmlar va F_1 da hosil bo'lgan duragaylarning genotipini toping. R r P p RR rr PP pp RrPP RRpp

Ma'lumki, to'tiqushlarning patining rangi ikki juft allel bo'lmagan va birikmagan genlar bilan ifodalanadi. komplementar dominant genlarning har qaysisi alohida o'z belgisi yoki moviy rangni yuzaga keltiradi, birgalikda kelganda esa yashil rang yuzaga keladi, retsessivlari rang belgisini ifodalamaydi, natijada oq rang hosil bo'ladi. O'qituvchi ushbu bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun quyidagi rasmlar mashqdan foydalanishi mumkin.



6-masala

1. Rasmga e'tibor berib birinchi va ikkinchi bo'g'in duragaylarning genotipini aniqlang. Bu qanday irsiylanishga misol bo'ladi?



7-masala

1. Tovuq va xo`rozlarda oddiy toj (r) gulsimon (R) tojga nisbatan, oyoq patining yqligi (f) oyoqda patning bo`lishi (F)ga nisbatan retsessiv hisobo`lanadi. Oddiy tojli, oyoqda pati yq tovuq digeterozigota gulsimon tojli oyog`ida pati bor xo`roz bilan chatishtirildi. Birinchi avlod parrandalarning fenotip va genotipini toping hamda ularning nisbatini belgilang.
2. Duragaylarning necha qismi oddiy tojli, oyog`ida pati yq tovuq bo`ladi?

GENLARNING EPISTAZ TA'SIRI BO'YICHA MASALALAR YeChIsh

Genlarning epistaz ta'siri bu- har xil allellarga kiruvchi genlarning biri ikkinchisining ta'sirini bo'g'ib qo'yish holati. Boshqa allel gen belgilarining rivojlanishini to'sib qo'yadigan gen ingibitor yoki supressor gen deyiladi.

Agarda to'sqinlik qilgan genlar dominant bo'lsa, dominant epistaz, retsessiv genlar bo'lsa, retsessiv epistaz deyiladi.

Dominant epistazda ikkita digeterozigotalar o'zaro chatishtirilganda, naslda 12:3:1 yoki 13:3 nisbat vujudga keladi. Masalan, otlarda junning rangi irsiylanishi dominant epistaz ta'sirida yuzaga chiqadi.

Retsessiv epistazda ikkita digeterozigotalar chatishtirilganda 9:3:4 nisbatda xilma-xillik vujudga keladi

1-masala Qovoq mevasining oq rangi -W , sariq rangi - Y , yashil rangi -y gen bilan ifodalanadi. W - gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi. Quyidagi genotipga ega qovoqlar chatishtirilsa, ularning fenotipi qanday bo'ladi?

- a) wwYy x wwYy b) WwYy x Wwyy d) WwYY x Wwyy
e) WWYy x wwyy f) Wwyy x WwYY g) WwYy x wwyy

2-masala Ikkita sariq rangli qovoq chatishtirilganda 3:1 nisbatda sariq va yashil qovoqlar hosil bo'lgan. Chatishtirishda ishtirok etgan qovoqlarning genotipini aniqlang.

3-masala. Izoh: Qovoqda U-geni mevaning sariq rangini, u-geni yashil rangini ifodalaydi. S— dominant supressor, s- retsessiv supressor.

Oq va yashil rangli qovoqlarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan F₁ ning o'zaro chatishtirishdan F₂ da 12ta oq, 3ta sariq, 1ta yashil qovoq hosil bo'lgan.

1. Ota-ona va F₁, F₂ duragaylarining genotipini aniqlang.
2. Olingan natijaga qarab noallel genlar rtasidagi o'zaro ta'sirini tushuntiring.

4-masala. Otlarda A geni junning kulrang, V geni qora rangni, v geni qizil rangni vujudga keltiradi. A geni ingibitor sanaladi.

Kul rangli ot qora ot bilan chatishtirildi, F₁da kul rang, F₂da esa duragaylarning 12 tasi kul rangli, 3tasi qora va 1 tasi qizil bo'ldi. Ota-ona va F₁, F₂ duragaylarining genotipini aniqlang.

5-masala. Quyidagi genotipga ega qovoqlarning fenotipini aniqlang.

- a) wwYy x wwYy b) WwYy x Wwyy d) WwYY x Wwyy
e) WWYy x wwyy f) Wwyy x WwYY g) WwYy x wwyy

6-masala. Quyidagi genotipga ega qovoqlarning fenotipi va qanday tipdagi gametaalarni hosil qilishini aniqlang.

- a) wwYy b) WwYy d) WwYY e) WWYy f) Wwyy g) WwYy

7- masala. Qovoqda U - geni mevaning sariq rangini, u – geni yashil rangini ifodalaydi. S-dominant supressor, s-retsessiv supressor.

Gomozigota oq va yashil qovoqlar o'zaro chatishtirilsa, F₁ da qanday rangli qovoq hosil bo'ladi?

8-masala. Gomozigota oq va yashil qovoqlarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan, F₁ duragayi o'zaro chatishtirilsa, F₂ fenotip bo'yicha qanday xilma-xillik vujudga keladi?

9-masala. Gomozigota oq va yashil qovoqlarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan, F₁ duragayi o'zaro chatishtirilsa, F₂ genotip bo'yicha qanday xilma-xillik vujudga keladi?

10-masala. Gomozigota oq va yashil qovoqlarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan, F₁ duragayi o'zaro chatishtirilsa, F₂ fenotip bo'yicha qanday xilma-xillik vujudga keladi?

GENLARNING O'ZARO TA'SIRI. POLIMER IRSIYLANISH. PLEYTROPIYA

Reja

1. Genlarning polimer ta'siri va unga oid masalalar yechish

2. Pleyotropiya va unga oid masalalar yechish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Genlarning o'zaro va ko'p tomonlama ta'siriga oid masalalar yechishga oid tushunchalarni shakllantirish

O'quv faoliyatining natijalari: Genlarning polimer ta'siriga oid masalalar yechishni izoxlaydi. Pleyotropiyaga oid masalalar yechishni

GENLARNING POLIMER TA'SIRI BO'YICHA MASALALAR Yechish

Genlarning polimer ta'sirida bir necha juft genlar bitta belgini vujudga keltiradi. Bunday genlar polimer genlar deyiladi. Odatda ular bir xil simvollar bilan belgilanadi. Masalan, $D_1 D_1 D_2 D_2$ quyonlarda quloq uzunligini belgilovchi genlar.

Ma'lumki, genlarning o'zaro polimer ta'sirida genlarning nasldan-naslga o'tishda ikki xil xolat kumulyativ va nokumulyativ polimeriya kuzatiladi.

o'quvchilar polimer irsiylanish bo'yicha masalalar yechishlari uchun avvalo genlarning o'zaro polimer ta'sirining mazmunini, noallel genlarning orasidagi o'zaro ta'siri xili, noallel genlarning o'zaro ta'sirida hosil bo'ladigan genotipga karab fenotipni aniklashni, polimer holda nasldan naslga tishning komplementar va epistaz irsiylanishdan keskin farqini aniq bilishi lozim. Shuningdek, o'quvchilar kumulyativ polimeriyaning ikkinchi bo'g'inida 1:4:6:4:1, nokumulyativ polimeriyada 15:1 nisbatda xilma-xillik vujudga kelishini anglashlari lozim, kumulyativ polimeriyada dominant genlar soni qancha ko'p bo'lsa, belgi shuncha kuchli rivojlanadi. Nokumulyativ polimeriyada belgining yuzaga chiqishi dominant genlarning soniga bog'liq emas, balki genotipda bitta dominant gan bo'lsa ham belgi rivojlanadi.

O'qituvchi ushbu ma'lumotlarni o'quvchilar ongiga yetkazgandan sng, o'quvchilarning kichik guruhlariga genlarning o'zaro polimer ta'siri bo'yicha masalalar mustaqil yechish uchun tavsiya etiladi. Kichik guruhlarning o'rtasida masalalar yechishi bo'yicha o'quv bahsi o'tkaziladi.

1-masala. Makkajo'xori so'tasi 20 va 8 sm. Dominant gen 5 sm, retsessiv gen 2 sm uzunlikni namoyon etsa, u holda:

A) F_1 da staning uzunligi qancha bo'ladi?

V) 3 ta dominant genli formalar F_2 da 960 ta o'simlikdan nechta qismini tashkil etadi?

2-masala. Quyonlarning Baron zotining quloq suprasi uzunligi 28 sm, boshqa zotniki 12 smga teng. Quyonlarning Baron zoti $D_1 D_1 D_2 D_2$ ikkinchi zotniki $d_1 d_1 d_2 d_2$ bo'lsa, ularni o'zaro chatishtirish natijasida F_1 duragaylarining quloq suprasi necha sm bo'ladi. Agar F_1 duragay quyonlarning urg'ochi va erkaklari o'zaro chatishtirilsa, F_2 da qanday natija kutish mumkin?

3-masala. Quyonlarning Baron zotining quloq suprasi uzunligi dominant $D_1 D_1 D_2 D_2$ genlarga, kaltaligi $d_1 d_1 d_2 d_2$ bog'liq.

Quloq suprasi 24 sm bo'lgan Baron quyon zoti quloq suprasi kalta (12sm) bo'lgan zot bilan chatishtirildi. F_1 duragay quyonlarning quloq suprasining uzunligi qanday bo'ladi?

a) Agar F_1 duragay quyonlarning erkak va urg'ochilari o'zaro chatishtirilsa, F_2 duragaylar nechta genotipik sinf hosil qiladi? b) nechta fenotipik sinf hosil qiladi? v) duragay quyonlarning qancha qismining quloq suprasi uzunligi Baron zotining quloq suprasidek uzun bo'ladi?

4-masala. Muhitning ta'siri unchalik e'tiborga olinmasa, odam bo'yining uzunligi $A_1 A_1 A_2 A_2 A_3 A_3$ past bo'lishi $a_1 a_1 a_2 a_2 a_3 a_3$ genlariga bog'liq. Odamda barcha genlar dominant bo'lganda bo'y uzunligi 180 sm, barcha genlar retsessiv bo'lganda bo'y uzunligi 150 smga teng. Barcha genlar bo'yicha gomozigota dominant erkak, past bo'yli ayolga uylandi. Ularning farzandlarida bo'y uzunligi necha sm bo'ladi?

5-masala. Doni tq qizil bug'doy navi och sariq bug'doy navi bilan chatishtirilganda birinchi avlodning doni pushti, ikkinchi avlodda 1ta tq qizil, 4ta qizil, 6ta pushti, 4ta och qizil, 1ta sariq formalar vujudga keldi. Ota-ona, 1- va 2- bo'g'in duragaylarining genotipini toping.

6-masala. Past bo'yli ayol rta bo'yli erkakka turmushga chiqqan va 4ta farzand ko'rgan. Ularning bo'yi 165 sm, 160sm, 155 sm, 150sm. Ayol va erkakning genotipi va bo'yining uzunligini aniqlang.

7-masala. Quyonlarning quloq suprasining uzunligi dominant $D_1 D_1 D_2 D_2$ genlarga, kaltaligi $d_1 d_1 d_2 d_2$ genlarga bog'liq. Quloq suprasi uzun 24 sm bo'lgan Baron quyon zoti quloq suprasi kalta 12 sm bo'lgan zot bilan chatishtirilgan. F_1 duragayining quloq suprasining uzunligini toping.

8-masala. Quyonlarning quloq suprasining uzunligi dominant $D_1 D_1 D_2 D_2$ genlarga, kaltaligi $d_1 d_1 d_2 d_2$ genlarga bog'liq.

Quloq suprasi uzun 21 sm bo'lgan organizmlarning genotipini toping.

1. $D_1 D_1 D_2 D_2$ 2. $D_1 d_1 D_2 D_2$ 3. $D_1 D_1 D_2 d_2$ 4. $D_1 D_1 d_2 d_2$
5. $D_1 d_1 d_2 d_2$ 6. $d_1 d_1 d_2 d_2$ 7. $D_1 d_1 d_2 d_2$ 8. $D_1 d_1 D_2 d_2$

9-masala. Quyidagi organizmlarning quloq suprasining uzunligini toping.

1. $D_1 D_1 D_2 D_2$ 2. $D_1 d_1 D_2 D_2$ 3. $D_1 D_1 D_2 d_2$ 4. $D_1 D_1 d_2 d_2$
5. $D_1 d_1 d_2 d_2$ 6. $d_1 d_1 d_2 d_2$ 7. $D_1 d_1 d_2 d_2$ 8. $D_1 d_1 D_2 d_2$

10-masala Quyida berilgan genotiplarga mos keladigan bo'y uzunligini toping. 1.

$A_1 A_1 A_2 A_2 A_3 A_3$ 2. $a_1 a_1 a_2 a_2 a_3 a_3$ 3. $A_1 A_1 A_2 A_2 A_3 a_3$
4. $A_1 a_1 A_2 a_2 A_3 a_3$ 5. $A_1 A_1 A_2 a_2 A_3 a_3$ 6. $A_1 a_1 A_2 a_2 a_3 a_3$

Pleyotropiya - bitta genning bir qancha belgilarni yuzaga chiqarishiga aytiladi.

Masalan, odamda uchraydigan araxnodaktiliya kasalligida mutatsiyaga uchragan gen bir vaqtning o'zida bir necha belgining yuzaga chiqishini belgilaydi: ko'z gavharining anomaliyasi, tayanch-harakat va yurak-qon tomir sistemasida buzilishlarini hamda "o'rgimchak" barmoqlar bo'lishiga olib keladi.

Bunday holda belgilarning irsiylanishida Mendel qonunlari bo'yicha ikkinchi avlod duragaylarida fenotip bo'yicha 3:1 nisbatda ajralish kuzatilmaydi, chunki pleyotprop dominant gen gomozigota holatda (AA) limga olib keladi.

1-masala. Qora rangli qorako'l terisidan kulrangli qorako'l terisi qimmatliroq va chiroyliroq bo'ladi. Kulrang junli qzichoqlarni ko'proq olish uchun qanday rangli qylarni chatishtirish kerak? Kulrangli gomozigota

2-masala. Ikkita sheroziy rangli myna beruvchi qorako'l qylar o'zaro chatishtirilganda. Birinchi bo'g'in duragaylari 2:1 nisbatda xilma xillik vujudga keltirdi.

3-masala. Normal junli erkak va urg'ochi Dog itlar chatishtirilganda naslning bir qismi nobud bo'ladi. O'sha erkak Dog boshqa urg'ochi Dog bilan chatishtirilganda naslda o'lim kuzatilmaydi. Yuqoridagi ikki xil chatishtirishda qatnashgan erkak va urg'ochi itlar va ular naslning genotipini aniqlang.

4-masala. Tovuqlarning ayrim zotlarining oyog'i kalta bo'ladi. Bunday tovuqlar polizlarni titkilab tashlamaydi. Bu belgi dominant bo'lib, bir vaqtda tovuq tumshug'ining qisqarishiga olib keladi. Dominant gen bo'yicha gomozigotali jjalar letal hisoblanadi, chunki ularning tumshug'i shunchalik kalta-ki, ular tuxum po'chog'ini yorib chiqolmasdan halok bo'ladi. Kalta oyoqli tovuqlar yetishtiruvchi ferma 3000 ta jo'ja olingan. Ularning nechitasi kalta oyoqli ekanligini toping.

5-masala. Meksika doglarida junning bo'lmasligi gomozigota holatda limga olib keladi. Ikkita juni normal bo'lgan doglar o'zaro chatishtirilganda avlodning bir qismi halok bo'ladi. Ota-ona va duragaylarning genotipini toping.

6-masala. Golshtin zotli qoramollarda junning bo'lmasligi retsessiv gen bilan ifodalanadi. Retsessiv gen gomozigota holatda o'limga olib keladi. Ikkita juni normal bo'lgan hayvonlar chatishtirilganda avlodning bir qismi halok bo'ladi. Ota-ona va duragaylarning genotipini toping.


7-masala. Van der Xeve sindromi autosoma dominant gen bilan ifodalanadi. Gen bir vaqtning o'zida ko'zning oqsil pardasi zangori bo'lishi, suyaklarning mo'rtligi va karlikka olib keladi. Kasallikka uchragan ota-onadan sog'lom bolalar tug'ilishi mumkinmi? Faraz qiling ota-ona avlodida bunday kasallik kuzatilmagan bo'lsa, bu kasallik qanday nasldan-naslga o'tishini aniqlang.

8-masala. Tulkilarda mo'ynaning platinali bo'lishi dominant letal gen sanaladi. Platinali mynaga jahon bozorida talab juda yuqori. Mynachilik fermasida ko'proq platinali mo'yna yetishtirish uchun qanday genotipli tulkilarni chatishtirish lozimligini aniqlang.

9-masala. Sariq erkak va urg'ochi sichqonlar chatishtirilganda 235 ta sariq, 123 ta kulrang sichqonlar olingan. Urg'ochi, erkak va F_1 sichqonlarning genotipini toping va uning sababini yoriting.

10-masala. Avvallari kalta oyoqli Dekster zotli qoramollar keng tarqalgan edi. Mazkur zotlar o'zaro chatishtirilganda duragaylarning 25% ning oyog'i uzun bo'lib, halok bo'lardi. Ota-ona va duragaylarning genotipini toping.

11-masala Ma'lumki, quyonlarda junning qora rangda bo'lishi, junda pigmentlar bo'lmasligi va ko'zning qizil bo'lishi (albino forma) ustidan dominantlik qiladi. Agar geterozigota quyon albino quyon bilan chatishtirilsa, u holda birinchi bo'g'in duragaylarning genotipini aniqlang.



Blits o'yin

№	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1.	Tabiiy tanlanish shakllariga nima kiradi?			Stabillashtiruvchi tanlanish, Xarakatlantiruvchi tanlanish, Dizruptiv tanlanish, Destabillashtiruvchi tanlanish
2.	Tabiiy abort qachon vujudga keladi?			Gatteriya, latimeriya, Gingko biloba.
3.	Relekt formalarni sanang?			Bit X xromosoma yetishmasa
4.	Stabillashtiruvchitanlanish deb nimaga aytiladi?			O'zgargan muxit sharoitiga mos o'zgarishlarni vujudga kelishi
5.	Dizruptiv tanlanish deb nimaga aytiladi?			Belgilari o'rtacha darajada yoki unga yaqin darajada bo'lgan individlarning saqlanishiga qaratilgan tanlanish.
6.	Xarakatlantiruvchi tanlanish deb nimaga aytiladi?			Destabillashtiruvchi tanlanish
7.	Tabiiy tanlanish natijasida nima xosil bo'ladi?			Tur
8.	Belyaev tabiiy tanlanishning qaysi shakliga asos solgan?			Tabiat
9.	Tabiiy tanlanishda saralovchi omil nima?			Tur ichidagi, turlararo, anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi
10.	Tabiiy tanlanish qachondan beri amalga oshib kelmoqda?			Tashqi muxitning o'zgarishi natijasida bita

				turdan bir necha yangi turning kelib chiqishi
11	Yashash uchun kurash shakllariga nimalar kiradi?			Erda hayot paydo bo'lgandan beri.

JINS GENNETIKASI. JINGGA BIRIKKAN XOLDA IRSIYLANISH

Reja:

1.Jins genetikasi

2.Jinsga birikkan xolda irsiylanishga oid masalalar

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda birikkan xolda irsiy-lanishga doir masalalar yechish haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijalari: Birikkan xolda irsiylanish oid masalalar ahamiyatini o'rganadi. Birikkan xolda irsiylanish oid masalalar izohlaydi.

Jinsga birikkan xolda irsiylanish

Jins organizmning gametalar hosil qilish orqali nasl qoldirishi, irsiy axborotni kelgusi avlodga uzatishni ta'minlaydigan belgi va xossalar majmuasidir. Yuksak hayvonlarda har xil jinsli organizmlarni farqlantiruvchi belgi-xossalar **birlamchi** va **ikkilamchi** jinsiy belgilarga ajratiladi. **Birlamchi jinsiy belgilarga** organizmda gametalar xosil bo'lishi, urug'lanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi va ularning rivojlanishini ta'minlovchi morfofizologik xususiyatlar, tashqi va ichki jinsiy organlar kiradi.

Ikkilamchi jinsiy belgilar erkak va urg'ochi organizmlar gametalarini hosil qilishda, ularning o'zaro qo'shilib urug'lashnishi ta'minlashda hamda jinsiy ko'payishda bilvosita rol o'ynaydi. Masalan, qushlarning, sut emizuvchi hayvonlarning erkagi gavdasining yirik bo'lishi, chiroyli bo'lishi, odamlarning erkaklarida soqol, mo'ylovning bo'lishi, ovozning yo'g'on bo'lishi bunga misoldir. Ular birlamchi jinsiy bezlar tomonidan ajralgan gormonlar ta'sirida rivojlanadilar. Erkak va urg'ochi organizmlar tashqi tuzilishidagi tafovut **jinsiy demorfizm** deyiladi. Jinsiy demorfizm ko'pgina hayvonlarda, odamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

1-masala. Odamlarda uchraydigan dal'tonizm retsessiv d geni bilan ifodalanib u jinsiy X xromosomada joylashgan. Quyida berilgan ota-onalar genotipini tahlil qilib, qaysi oilada hamma farzandlar dal'tonizm kasaliga ega bo'lib tug'ilish ehtimolini aniqlang.

A. $X^D X^D \times X^D Y$. V. $X^d X^d \times X^d Y$
 S. $X^D X^d \times X^D Y$. D. $X^D X^D \times X^d Y$.

2-masala. Odamlarda uchraydigan dalʼtonizm retsessiv d geni bilan ifodalanib u jinsiy X xromosomada joylashgan. Quyida berilgan ota-onalar genotipini tahlil qilib, qaysi oilada faqat dalʼtonik gʻil tugʻilish ehtimolini aniqlang.

A. $X^D X^D \times X^D Y$. V. $X^d X^d \times X^d Y$ S. $X^D X^d \times X^D Y$. D. $X^D X^D \times X^d Y$.

3-masala. Odamlarda uchraydigan dalʼtonizm retsessiv d geni bilan ifodalanib, u jinsiy X xromosomada joylashgan. Quyida berilgan ota-onalar genotipini tahlil qilib, qaysi oilada dalʼtonik qiz va gʻil tugʻilish ehtimolini aniqlang.

A. $X^D X^D \times X^D Y$. V. $X^D X^d \times X^d Y$ S. $X^D X^d \times X^D Y$. D. $X^D X^D \times X^d Y$

4-masala. Tovuqlarda patning kumush rangi dominant, tilla rang retsessiv boʻlib, X xromosomada joylashgan.

Maʼlumki, parrandalarda urgʻochi organizmlar gomogametaali boʻladi. Agar tilla rangli tovuq gomozigotali kumush rangli xoʻroz bilan chatishtirilsa, jjalarning rangiga qarab ularning jinsini aniqlash mumkinmi?

5-masala. Agar tilla rangli tovuq Geterozigotali kumush rangli xoʻroz bilan chatishtirilsa, jjalarning rangiga qarab ularning jinsini aniqlash mumkinmi?

6-masala. Gemofilik kk koʻzli yigit, otasi kk koʻzli va gemofiliya bilan kasallangan sogʻlom qy koʻzli ayolga uylandi. Shu oilada koʻzning rangi va gemofiliyaga nisbatan qanday farzandlar tugʻilishi mumkin?

7-masala. Odamda ter bezlarining boʻlishi geni ter bezlarning boʻlmasligi ustidan dominantlik qiladi va mazkur genlar X xromosomada joylashgan. Ter bezlari boʻlmagan shigit shu belgi boʻyicha sogʻlom qizga uylandi. Ota-ona va boʻlajak farzandlarning genotipini aniqlang.

8-masala. Odamda alʼbinizm retsessiv gen autosomada, gemofiliya kasalligini keltirib chiqaradigan retsessiv gen X xromosomada joylashgan. Yuqorida qayd eoʻtilgan belgilar boʻyicha sogʻlom yigit otasi gemofilik, onasi alʼbinos boʻlgan fenotip jihatdan sogʻlom boʻlgan ayolga uylandi. Bu nikohdan qanday bolalar tugʻilishi mumkin?

9-masala. Ona 1-qon guruhiga ega, ota 4-qon guruhiga ega boʻlib, har ikkalasi rangni yaxshi ajratadi. Shu oilada 3-qon guruhiga ega dalʼtonik bola tugʻildi. Kelajakda shu bola sogʻlom 2- qon guruhiga ega ayolga uylansa qanday farzandlar koʻradi. Qayd eoʻtilgan organizmlarning genotipini aniqlang.

10-masala. Geterozigota qora sochli gemofilik ayol xuddi shunday genotipli erkakka turmushga chiqdi. Bu nikohdan qanday bolalar tugʻilishi mumkin? Ota-ona va farzandlarning genotipini aniqlang.

№	Savollar	Yakka javob	Toʻgʻri javob	Sizning harakatingiz
1.	Jins nisbati qanday boʻladi?			3:1, 1:1
2.	Jinsni aniqlashni qanday xil-lari bor?			Boveri, Setton
3.	Jinsiy dimorfizm nima?			XU
4.	Autosoma nima?			
5.	Erkak va urgʻochi organizmda biri biridan farq qiladigan			Erkak urgʻochi organizmning tashqi tuzilishidagi farq

	xromo-somalar nima deyiladi?			
6.	Gemizigota organizm genotipi qanday bo'ladi?			Drozofila, sut emizuvchilarda
7.	Qaysi organizmlarning erkaklari XU urg'ochilari XX bo'ladi?			Parandalar, timsoxlarda
8.	Qaysi organizmlarning erkaklari XU urg'ochilari XX bo'ladi			Birikkan xolda irsiylanishga
9.	Morgan qonuni deb nimaga aytiladi?			Gaploid to'plamga
10.	Genlarning birikish guruxini soni nimaga teng?			Erkak va o'rg'ochi organizmda bir biridan farq qilmay-digan xromosomalar
11	Qaysi olimlar genlar xromosoma-da joylashgan degang taxminni ilgari surgan?			Progam, epigam, singam
12	Genlarning to'liq birikkan xolda irsiylanishida nisbat qanday bo'ladi?			1:1

BELGILARNING BIRIKKAN XOLDA IRSIYLANISHI


Reja:

1. Belgilarning birikkan xolda irsiylanishi
2. Birikkan xolda irsiylanish oid masalalar.

T.Morgan belgilarni birikkan xolda irsiylanish xodisasini o'rganish uchun drozofila pashshasidan foydalandi. Chatishtirishda genlari bitta xromosomada joylashgan ikkita belgili pashsha formalar qatnashdi. Qora tanali (b), normal qanotli(Vg⁺)urg'ochi formasini kulrang tanali(b⁺) rudiment qanotli(Vg)forma bilan chatishtirganda G₁ da barcha erkak va urg'ochi pashshalar tanasi kulrang, qanoti normal bo'lgan(31-rasm). Birikkan xolda irsiylanishga doir chatishtirishni yozishda belgilarni bir biridan mustasno xolda irsiylanishidan farqlash uchun genlar joylashgan xromosomalarni ko'rsatish lozim. Morgan G₁ dagi duragay kulrang tanali, normal qanotli erkak drozofilani qora tanali, rudiment qanotli urg'ochi forma bilan taxliliy chatishtirganda G_b da 50% drozofilalarda kulrang tana, rudiment qanot, 50% drozofilalarda qora tana normal qanot rivojlangan. Binobarin G_b da xuddi ota-onaga o'xshash formalar teng miqdorda paydo bo'lgan. Ikki belgi genlari turli nogomologik xromosomalarda joylashganda G_b da to'rt xil forma 25% xosil bo'lishi kerak edi. Lekin belgi genlari bir xromosomada joylashgani uchun G₁ da faqat ikki xil gameta xosil bo'ladi va G_b da ota-onaga o'xshash ikki xil forma 50% dan xosil bo'ladi. Bunga Morgan belgilarni **to'liq birikishi** deb nom berdi.

G₁ dagi urg'ochi kulrang tanali, normal qanotli duragay drozofilani retsessiv belgili erkak drozofila bilan chatishtirilsa, G_b da 83% chatishtirishda qatnashgan ota va onaga o'xshash drozofilalar olingan. Ularning 41,5% da kulrang tana, rudiment qanot yana 41,5% da qora tana normal qanot rivojlangan. 17% duragaylar esa ota-ona organizmlar belgilari kombinatsiyalangan formalar, ya'ni 8,5% qora tanali, rudiment qanotli, 8,5% da kulrang tana normal qanotlilar xosil bo'lgan. Agar bu ikki belgi bir

biridan mustasno xolda irsiylanganda xosil bo'lgan to'rta organizm 25% bo'lishi lozim edi, agar to'liq birikish bo'lganda edi bunda ikkita ota-onaga o'xshash organizm 50% xosil bo'lishi lozim edi. Shuning uchun bu xodisaga Morgan belgilarni **qisman birikishi** deb nom berdi



1922 yili amerikalik genetik **K.Bridjes** bir nechta triploid 3X+3A drozofila meva pashshalarini aniqladi. Bu triploid pashshalar xayotchang bo'lib normal diploid XY+2A erkak pashshalar bilan chatishganda 8 xil jinsiy xromosomalari va autosomalari turli sonda va kombinatsiyada bo'lgan formalar xosil bo'ldi: 1)3X:3A, 2)2X:2A, 3)[2X+Y]:2A, 4)2X:3A, 5)[2X+Y]:3A, 6)XY:2A, 7)3X:2A, 8)XY:3A. Bunday turli formalarni xosil bo'lishligini sababi triploid urg'ochi pashshada gametogenezda xromosomalarni normal taqalishini buzilishi oqibatida turli xromosoma to'plamli gametalar xosil bo'ladi. Olingan 8 xil pashshalarni to'rta guruxga ajratish mumkin:

- 1) Normal urg'ochi va erkaklar,
- 2) Interseks(germofrodit) – oraliq formalar,
- 3) O'ta erkak formalar(ular odatda bepusht bo'ladi),

4) O'ta urg'ochi formalar (bepusht).

K.Bridjes drozofila meva pashshasida jins X va Y xromosomalarning mavjudligi bilan emas, balki jinsiy xromosomalarning autosomalarga bo'lgan nisbati ($X:A$) bilan belgilanishini aniqladi. Agar bu nisbat **1** ga teng bo'lsa $3X:3A$, $2X:2A$, $[2X+Y]:2A$ **normal urg'ochi**, agar bu nisbat **0,5** teng bo'lsa $XY:2A$ **normal erkak**, agar nisbat **0,67** bo'lsa $[2X+Y]:3A$, $2X:3A$ **oralik forma interseks**, agar nisbat **1,5** teng bo'lsa $3X:2A$ **o'ta urg'ochi**, agar nisbat **0,33** teng bo'lsa $XY:3A$ o'ta erkak organizmlar xosil bo'ladi. Jinsiy xromosomalarning autosomalarga bo'lgan nisbatini **jinsiy indeks** deyiladi. Shu tariqa drozofila meva pashshalarida jinsni aniqlashga **Bridjesni jinsni aniqlashning balans nazariyasi** deyiladi. Balans nazariyasini ba'zi bir o'simliklarni jinsini aniqlashda xam qo'llash mumkin. Masalan, ikki uyli yaylov otqulog'ida Y xromosoma jinsga nisbatan befarq. Shunga ko'ra bu o'simlikda jins X xromosoma bilan autosomalarning o'zaro nisbatiga qarab belgilanadi. Odatda urug'chi o'simlikda $2A+XX$, changchi o'simlikda $2A+XY$ bo'ladi. Mabodo autosomal soni X xromosomaga nisbatan ko'p bo'lsa $2X+3A$ u holda erkak, $4X+3A$ bo'lsa urug'chi o'simlik rivojlanadi.

Birikkan xolda irsiylanishga oid masalalar

1-masala. Odamda qora soch, sariq rangli soch ustidan, qy ko'zlilik geni kk ko'z ustidan dominantlik qiladi.

Gomozigotali qora sochli, ko'k ko'zli ayol, qora sochli geterozigota, kk ko'zli yigitga turmushga chiqdi. Ota-ona va farzandlarning genotipini toping.

2-masala. Jingalak sariq sochli bolaning ota-onasi jingalak qora sochli.

Ota-ona va farzandning genotipini toping.

3-masala. Sochi sariq va silliq bo'lgan ayol qora jingalak sochli yigitga turmushga chiqdi. Ota-ona va farzandlarning genotipini toping.

Odamda qon guruhlarining irsiylanishi kodominantlik ta'siri bilan yuzaga chiqadi.

Odamda 4ta qon guruhi mavjud:

Birinchi qon guruhi $I^O I^O$;

Ikkinchi qon guruhi gomozigota holatda $I^A I^A$, getrozigota holatda $I^A I^O$;

Uchinchi qon guruhi gomozigota holatda $I^B I^B$, getrozigota holatda $I^B I^O$;

Trtinchi qon guruhi esa $I^A I^B$ bilan ifodalanadi.

4-masala. Odamda birinchi qon guruhi $I^O I^O$, ikkinchi qon guruhi gomozigota holatda $I^A I^A$, getrozigota holatda $I^A I^O$, uchinchi qon guruhi gomozigota holatda $I^B I^B$, getrozigota holatda $I^B I^O$ trtinchi qon guruhi esa $I^A I^B$ bilan ifodalanadi.

Gomozigota holatdagi II va III qon guruhiga ega bo'lgan yigit va qiz nikohidan qanday qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar dunyoga keladi?

5- masala. Geterozigota holatdagi II va III qon guruhiga ega bo'lgan yigit va qiz nikohidan qanday qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar dunyoga keladi?

6-masala. 4-guruhiga ega bo'lgan onaning II - qon guruhiga ega bo'lgan farzandi bor. Otasining qon guruhini aniqlang.

7-masala. I va geterozigota II-guruhiga ega bo'lgan yigit va qiz nikohidan qanday qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar dunyoga keladi?

8-masala. Qaysi qon guruhiga ega bo'lgan yigit va qiz nikohidan dunyoga kelgan farzandlarda qon guruhi ota-onasinikidan farq qiladi?

9-masala. II-guruhiga ega bo'lgan onaning I- qon guruhiga ega bo'lgan farzandi bor. Otasining qon guruhini aniqlang.

10-masala. Odamda yaqindan ko'rmaslik normal ko'rish ustidan, qy ko'zlik esakk ko'zlik ustidan dominantlik qiladi. Qy ko'zli, yaqindan ko'radigan ota-onadan kk ko'zli va normal ko'radigan farzand tug'ilishi mumkinmi? Ota-ona va farzandlarning genotipini toping.

MASALA

1. Kul rang va oddiy qanotli digeterozigot erkaklarini (genlar tsis-fazada) tq rangli va urug'lantiruvchi qanotli urg'ochilar bilan chatishtirish natijasidagi naslning genotiplari va fenotiplari qanday?

	AV	ab
(G ₁ : 50%	---	50% ---
	Ab	ab
	S.N.	T.Z.)

2. Kul rang va oddiy qanotli digeterozigot erkaklarini (genlar trans -fazada) tq rangli va urug'lantiruvchi qanotli urg'ochilar bilan chatishtirish natijasidagi naslning genotiplari va fenotiplari qanday?

	Ab	aV
(G ₁ : 50%	---	50% ---
	ab	ab
	S.Z.	T.N.)

3. Makkajxori urug'ining silliq shakli burishgan ustidan, donning bo'yalgani esa bo'yalmagani ustidan dominantlik qiladi. Ikki belgi birikkan holda irsiylanadi. Bo'yalgan silliq urug'li makkajxori bo'yalmagan, burushgan urug'li makkajxori bilan chatishtirildi. Naslda 4152 ta bo'yalgan silliq, 149 ta bo'yalgan burishgan, 152ta bo'yalmagan silliq, 4163 ta bo'yalmagan burishgan o'simliklar olindi. Genlar orasidagi masofani aniqlang.

POPULYATSIYALAR GENETIKASI

Reja:

1. Populyasiya haqida ymymiy tyshyncha.
2. Populyasiyalarda irsiylanish.
3. Populyasiyaning genetik dinamikasiga ta'sir etyvchi omillar.
4. Evolyusiyaning genetik asoslari.

Populyasiya haqida umumiy tushuncha.

Populyasiya deyilganda tyr tarqalgan arealning myayyan joyida yzoq myddat mavjyd bo'lgan, o'zaro erkin chatishib nasl beradigan, ayrim belgi-xossalari bilan shy tyrga mansyb boshqa Populyasiyalardan farq qilyvchi, nisbatan alohidalashgan organizmlar yig'indisi tyshyniladi. Har bir Populyasiya tyrning kichik bir qismidir.

Populyasiyalardagi irsiy o'zgarishlarni tadqiq qilyvchi genetikaning shaxobchasi populyasion genetika deb ataladi. Populyasiyalarni genetik tomondan o'rganish XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Rys olimi S.S.CHetverikov 1926 yili chiqargan «Hozirgi zamon genetikasi nyqtai nazaridan evolyusion jarayonning ba'zi bir tomonlari» degan maqolasida har bir Populyasiya jyda ko'p yashirin va oshkor mytasiyalarni qamrab olganligini ta'kidlagan. Y birinchi bo'lib Populyasiyani

genofondi tyshynchasini fanga joriy etdi va mazkyr atama ostida Populyasiyaning genetik imkoniyatlarini tyshynish kerakligini ta'kidladi. Olimlardan R.Fisherning «Tabiiy tanlanishning genetik nazariyasi» (1930), N.P.Dybinning «Genetik-avtomatik jarayonlar va ularning evolyusiyadagi roli» (1931), S.Raytning «Mendelcha Populyasiyalardagi evolyusiya» (1932), N.P.Dybin va D.D.Romashevning «Tyurning genetik tyzilishi va yning evolyusiyasi» nomli asarlarida Populyasiya genetikasining eksperimental taxlili yoritilgan.

Populyasiyalardagi irsiylanish.

Tabiatda mutloq gomozigota bo'lgan Populyasiyalar uchramaydi. Chunki o'z-o'zini otalantiryvchi organizmlar ham vaqti-vaqti bilan chetdan yryg'lanishi mymkin. Ikkinchidan ylarda tamq myhit ta'sirida mytasion o'zgaryvchanlik ro'y berishi mymkin. SHynga ko'ra hech bir paytda yuz foiz gomozigota bo'lgan Populyasiyalarni topish mymkin emas. Masalan g'o'za o'simligi o'z-o'zini changlantiryvchi o'simlik sanalsada, ynda chetdan changlanish 20-25 foizni tashkil etadi.

CHetdan chatishadigan o'simlik, hayvon Populyasiyalari tarkibi har xil genotipga ega organizmlarning o'zaro erkin chatishishi bilan belgilanadi. Populyasiyadagi y yoki by genotipga ega organizmlar miqdori har xil genotipli ota-ona organizmlar gametalarining o'zaro ychrash tezligiga bog'liq. Tabiiyki Populyasiya tarqalgan hydyd sharoitiga moslashgan genotiplarning gametalarini o'zaro ychrashishlari shy sharoitga ynchalik moslashmagan organizm genotiplari gametalarining o'zaro ychrashishlariga nisbatan ko'p bo'ladi. Populyasiyalarda doimo tyrli xil mytasiyalar ro'y berishini hisobga oladigan bo'lsak tabiiy sharoitda tarqalgan har bir Populyasiya genetik jihatdan nihoyatda har xil genotiplardan tashkil topganligiga shybha qolmaydi. Misolga g'o'za navlari-Populyasiyalarini olsak Odilov S, Jalilov O, Jymabekov X ma'lymotlariga ko'ra g'o'zaning AN-209 navida 8, AN-208 navida 4, AN-211 navida 5, Toshkent-1 navida 6 xil genotipga ega formalar mavjyd.

Tabiiy sharoitda Populyasiya genetikasini o'rganishning bir ysyli yndagi bir gen bo'yicha gomozigota va geterozigota formalar ychrashlik tezligini aniqlashdan iborat. Masalan, biror Populyasiyada bir genning har xil masalan, AA va aa allellariga ega formalar teng deb faraz qilaylik. Y holda bynday o'simlik Populyasiyasida yryg'chi va changchi, hayvon Populyasiyalarida tyxym hyjyra va spermatozoidlarda bir genning allellari 0,5 A va 0,5 a nisbatda bo'ladi. Ylarning o'zaro erkin chatishishidan rivojlangan F₁ avlodda gomozigota AA-0,25, geterozigota Aa-0,50, gomozigota aa-0,25 nisbatda bo'ladi. Keyingi avlodda ham shy jarayonda gomozigota va geterozigota formalar erkin holatda chatishsalar dominant allel A-0,50, resessiv allel a-0,50 ga teng bo'ladi. CHetdan chatishyvchi Populyasiyalarda gen allellarini qanday irsiylanishini izoxlash maqsadida 1908 yili Angliyada matematik G.Xardi va Germaniyada vrach V.Vaynberg bir-biridan mystasno Populyasiyalar genotipik va fenotipik sinflarining tarqalishiga oid formylani fanga joriy etdilar. Ylarning mylohazasiga binoan ma'lym sharoitlarda allellarning takrorlanishi o'zgarmasa Populyasiyalarda dominant va resessiv formalar o'zaro nisbati o'zgarmay qoladi. Xardi-Vaynberg formylasiga ko'ra Populyasiyadagi bir allelning chynonchi D ning ychrash tezligi q, d allelining ychrash tezligini esa (1-q) bilan belgiladi. Ylarning o'zaro ychrashishidan hosil bo'lgan nasllarda genotipik sinflar nisbati shynday bo'ladi.

	qD	(1-q)d
qD	q ² DD	q(1-q)Dd
(1-q)d	q(1-q)Dd	(1-q) ² dd

Agar olingan natijalarni jamlasak y holda Xardi-Vaynberg formylasiga ko'ra genotipik va fenotipik sinflarning taqsimlanishi tabandagicha ko'rinishda bo'ladi:

q² DD : 2q (1-q) Dd : (1-q)² dd. Yshby formylaga myvofiq mazkyr Populyasiyada tanlanish ro'y bermasa fenotipik va genotipik sinflar nisbatibir necha avlodlarda o'zgarmay qoladi. Fenotipik sinflarning o'zaro nisbati belgilar oraliq holda irsiylanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Belgilar to'liq irsiylanganda genotipik sinflar Xardi-Vaynberg formylasiga mos holatda irsiylanadi.

Populyasiyaning genetik dinamikasiga ta'sir etyvchi omillar.

Evoluyusion jarayonda Populyasiyadagi bir genotip ikkinchi xil genotip bilan almashinib tyradi. Populyasiya tarkibidagi bir genotip ikkinchi xil genotip bilan almashishi sifat jihatdan farq qilyvchi genotiplar sonining o'zgarishi bilan izohlanadi. Populyasiya genotipi nisbatining o'zgarishi Populyasiya dinamikasining mohiyatini ifoda etadi. Populyasiyaning genetik jihatdan o'zgarishi mytasion va kombinasion o'zgaryvchanlik bilan yzviy bog'liq holda amalga oshadi. Populyasiya dinamikasining genetik omillariga mytasion jarayon, tanlanish, aloxidalanish, Populyasiyalar to'liqini va genlar dreyfi kiradi.

A) mytasion jarayon: Populyasiyadagi genlar tezligini nisbatan doimiy takrorlanishi shy vaqtda yuz beradiki, qachonki Populyasiyada mytasiyalar kyzatilmasa. Biroq Populyasiyalarda vaqti-vaqti bilan mytasiyalar sodir bo'lishi tabiiy bir hol. Mytasiyalar Populyasiyalar evolyusiyasini o'zgartiryvchi birlamchi irsiy omil sanaladi. Irsiy birlik hisoblangan genda mytasiya ro'y berishi axyon-axyonda kyzatiladigan xodisa. SHynga qaramay organizmlarda genlar soni, Populyasiyada esa organizmlar soni ko'p bo'lgani sababli har bir Populyasiyada mytasiyalarning ko'lami kata bo'ladi. Har qanday mytasiya tarixiy taraqqiyotda tarkib topgan nisbatan myxim genetik sistemani bir bytynligini o'zgartiradi. CHynonchi, A gen alleli mytasiyaga ychrab a allelini hosil etsa, avlodlarda bora-bora A alleli son jihatdan kamayib, a alleli aksincha ko'paya boradi. Xydi shynday myloxazani V yoki S geniga nisbatan ham aytish mymkin. Populyasiyadagi gen allellari myvozanatini o'zgarishi yning genetik tarkibini o'zgarishiga olib keladi. Lekin Populyasiya genofondida yangi mytasiyaning tarqalishi yning organizm hayotchanligiga, yrchishiga qanday ta'sir etishiga bog'liq. Agar mytasiyalar orasida letal, yarim letal, pyshtga salbiy ta'sir etyvchi mytasiyalar bo'lishi mymkinligi e'tiborga olinsa, y holda ana shynday mytasiyalar hisobiga Populyasiyadagi individlar soni kamaya boradi.

Ko'p holatlarda yangi mytasiya Populyasiya ychyn zararli, axyon-axyonda esa foydali bo'lishi mymkin. Dominant mytasiya geterozigota holatda tanlanish nazoratida bo'ladi. Resessiv mytasiya faqat gomozigota holatdagina tanlanish nazoratida bo'ladi. Resessiv mytasiyani Populyasiyada ko'payishi, gomozigota holatda bo'lishi shy gen bo'yicha geterozigota organizmlarning ychrashish tezligiga bog'liq. Populyasiya egallagan maydon kichik bo'lsa geterozigota organizmlarning o'zaro ychrashish ehtimoli ko'proq, katta bo'lsa resessiv allel genni gomozigot holatga o'tish ehtimoli kamroq bo'ladi.

B) Populyasiyaning genetik dinamikasida tanlanishning roli: myxit sharoitiga moslashgan organizmlarni yashab, nasl qoldirishi tanlanish deyiladi. SHaxsiy

taraqqiyotida organizm yashab, nasl qoldirishi ko'p jihatdan myhit sharoitiga qay darajada moslashganligi bilan izohlanadi. Populyasiya genetikasini bilish genotipning tanlash qiymatini aniqlash imkonini beradi. Biror Populyasiyada gomozigota resessiv organizmlar (aa) 99%, dominant alleli (AA) organizmlar esa 100% nasl qoldiradi deb faraz qilaylik. Ular orasidagi tanlanish farqi ya'ni genotiplarni tanlanish koeffisienti S ni ifodalaydi. By Populyasiyada shunday holat yuz bergan taqdirda tanlanish koeffisienti $S=1,00-0,99=0,01$ ga teng bo'ladi. Mabodo Populyasiyada dominant va resessiv allellarga ega organizmlarning yashab qolish va nasl qoldirish ehtimoli teng bo'lsa, tanlanish koeffisienti 0 ga teng. Populyasiyadagi ikki xil AA, aa allellariga ega organizmlardan biri pyshtsiz bo'lib nasl qoldirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, y holda tanlanish koeffisienti 1 ga teng bo'ladi. Masalan, gomozigota resessiv alleli organizmlar tanlanish tyfayli yaroqsizga chiqarilsa y holda avlodlar sari by allelning Populyasiyadagi ychrashlik darajasi kamaya boradi. Tanlanish doimo myxit sharoitiga mos bo'lmagan genlarning tarqalishini cheklab boradi. SHy ma'noda yashash ychyn kyrashning organizmlar orasidagi nasl qoldirish bo'yicha o'zaro poygaga qiyoslash mymkin. Ana shunday poyga natijasida Populyasiyadagi jyda zararli mytasiyalar to'plami ynchalik zararli bo'lmagan Populyasiyalar to'plamiga qaraganda kamaya boradi. Aksincha myxit sharoitiga moslashgan mytasiyalarning Populyasiyadagi to'planishi orta boradi. Y yoki by genlar to'planishi Populyasiyalarda organizmlar soni bilan ham aloqador. Populyasiyalarda individlar soni kam bo'lsa bir xil alleli organizmlarning o'zaro ychrashishi tez-tez bo'ladi. Natijada Populyasiyada gomozigota formalar foizi oshadi, tanlanish zararli mytasiyalarni tez bartaraf etadi.

Populyasiyadagi dominant va resessiv allellarni bartaraf etilish tezligi har xil. Populyasiyalarda dominant allellar resessiv allellar singari letal, yarim letal, qisman pyshtsiz, to'liq pyshtsiz formalarni va har xil morfologik, fiziologik kamomadlarni keltirib chiqaradi.

Bynday dominat letal, yarim letal va pyshtsizlikni keltirib chiqaryvchi genlar tanlanish tyfayli birinchi avloddayoq yaroqsizga chiqadi. YAshovchanligi nisbatan past boshqa dominant genlarni tabiiy tanlanish bir necha avlodlar mobaynida bartaraf etadi. Agar dominant genlar mytasiyasi organizmning myxitga moslashishini oshirsa y holda tanlanish bynday dominant genlarni avloddan-avlodga o'tgan sari ko'payishni ta'minlaydi. Resessiv mytasiyalar dominant mytasiyalardan farqli ravishda geterozigota holatda Populyasiyalarda to'plana boradi va oqibatda yashirin holatda mytasiyalarning katta zaxirasini hosil qiladi.

Agar resessiv mytasiyalar o'ta zararli va pyshtsiz bo'lsa, y holda tanlanish ularni Populyasiya tarkibidan to'liq bartaraf etadi. Mabodo resessiv gen Populyasiya tarkibida 0,5% ni tashkil etsa, y holda Xardi-Vaynberg qonyniga binoan AA-0,25, Aa-0,50, aa-0,25 ga teng bo'ladi. Demak, tanlanish resessiv mytasiyalarni Populyasiya tarkibidan to'liq bartaraf eta olmaydi.

Aloxidalanish: har bir tyr tyrli Populyasiyalardan tashkil topgan. Agar bir Populyasiya bilan ikkinchi Populyasiya o'rtasida genlar almashinyvi ro'y bermasa, mazkyr Populyasiya shy tyrning boshqa Populyasiyasidan alohidalashib ketadi. Agar bynday aloxidalanish yzoq myddat davom etsa hamda ylardagi tanlanish tyrli yo'nalishda bo'lsa Populyasiyalarning bir-biridan farqlanishi orta boradi va nihoyat ylar kenja tyrlarga, agar by jarayon yana davom etsa tyrlarga aylanadi.

Populyasiyalarning bir-biridan alohidalanishi geografik, ekologik, biologik yuksak hayvonlarda esa yana etologik omillar ta'sirida ro'y beradi. Geografik

omillarga Populyasiya tarqalgan hydydlar orasida baland tog'larni, katta daryolarni, syv havzalarni paydo bo'lishi kiradi. Ekologik omillar deganda iqlim, typroqni, namlikni o'zgarishi tyfayli tyr tarkibidagi tyrli Populyasiya orasida erkin chatishish bo'lmasligi tyshyniladi. Masalan, dengizda yashab daryolarda yrchiydigan baliqlarni alohida-alohida Populyasiyalari bo'lib, ylar bir-biridan tanasi katta bo'lishi, rangi, tyxym tashlash vaqti, yning miqdori, yoshi, jinsiy etilish vaqti bilan tafovyt qilishi mymkin. Bynday tafovytlar myxit ta'sirida paydo bo'lgan modifikasion o'zgarishlarga bo'lmay, balki irsiylanishi mymkin. Aloxidalanishning biologik omillariga meyozy bo'linishning normal bo'lmasligi oqibatida o'zaro chatishishga to'sqinlik qilyvchi kamomatli gametalarni hosil bo'lishi, poliploidiya, xromosoma abberasiyalari, yadro-sitoplazmatik nomyvofiqlik, letal mytasiyalar va pyshtsizlikni ortib ketishi kiradi.

Genlar dreyfi: Populyasiya tarkibidagi individlar soni doimo birday bo'lmaydi. Ob-havo qyly, ozyqa mo'l bo'lgan davrlarda Populyasiyadagi organizmlar soni ortishi, noqyly sharoitda kamayishi mymkin. Populyasiyadagi organizm sonini bynday ko'payib, kamayib tyrishini hayot-Populyasiya to'lyini deb ataladi. Populyasiya egallagan hydydda organizmlar bir xil tarqalmaydi. Ba'zi joylarda ylar soni ko'p, boshqa joylarda esa kam bo'ladi. Qayd etilgan bynday holatlar individlar orasida tasodifiy chatishish ro'y berishi, ba'zan myxitga moslashgan allellarni yo'qolishi, moslashganlarni saqlanishi mymkin. Agar genlarni bynday tasodifiy o'zgarishi (dreyfi) Populyasiyadagi organizmlarni myxit sharoitiga moslashishni pasaytira, y holda Populyasiya bora-bora qirilib ketadi. Ayrim holatlarda esa genlar dreyfi tyfayli myxit sharoitiga yuqori darajada moslashgan organizmlar paydo bo'lishi mymkin. Yni E.Meyr genetik inqilob deb atadi. Ba'zi biologlar genetik inqilob tyfayli yangi tyrlar paydo bo'ladi degan fikrdalar. Lekin bynday qarashni hamma biologlar e'tirof etavermaydilar.

Evolyusiyaning genetik asoslari.

Populyasiyadagi genetik o'zgarishlar albatta mikroevolyusiya ga sababchidir. Gen mytasiyasidan tashqari xromosoma va genom mytasiyalari organizmlarning tarixiy taraqqiyotida myxim roly o'ynaydi. O'simliklar ayniqsa gylly o'simliklar evolyusiyasida poliploidiyaning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Sitologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha gylly o'simliklarning ko'p tyrkymlyari poliploid tyrlardan tashkil topgan. CHynonchi kartoshka 12, 24, 36, 45, 60, 72, 96, 108, 144 xromosomal tyrlari mavjydy. Byg'doyda esa 14, 28, 42 xromosomal, g'o'zada 26, 52 xromosomal tyrlar ychraydi. Bynday poliploid tyrlar syli, sholi, eryong'oq, tamaki, gladiolys, gylsafsar, lola, malina, olxo'ri, olma, nok, limon, apelysin va boshqa gylly o'simliklarda aniqlangan. Ochiq yryg'ly o'simliklarda poliploidiya kam, lekin qirqqyloqlarda, yo'sinlarda ylar topilgan. Poliploid tyrlar noqyly sharoitga o'ta moslanyvchandir. CHynonchi Arktikada o'syvchi o'simliklarning 70%i, Pomirdagilarning 86%i, Oltoydagi o'simliklarning 65% foizi poliploid tyrlar sanaladi. Poliploid mytasiyalarni tabiiy tanlanish orqali tanlanishiga asosiy sabab shyki hyjayrada xromosomal karra oshganda zararli resessiv mytasiyalarni gomozigota holatga o'tish ehtimoli diploid xromosomal formalarga nisbatan kam bo'ladi. By ayniqsa o'z-o'zini changlatyvchi o'simliklar ychyn o'ta myhim sanaladi. CHynki ylarda resessiv mytasiyalarni gomozigota holatga o'tishi tez ro'y beradi. YAngi tyrlarni hosil bo'lishida bir tyrga mansyb xromosomalarni karra ortishi – avtopoliploidiyabilan bir qatorda bir organizmdagi har xil tyrlarga oid xromosomalarni karra ortishi – allopoliploidiyaning

ham ahamiyati kattadir. Odatda o'simlik, hayvonlarda tyrlararo dyragaylar pyshtsizdir. Bynga yorqin misol tariqasida ot bilan eshakning chatishishidan tyg'ilgan xachirning nasl bermasligini olsa bo'ladi. Tyrlararo dyragaylarning nasl bermasligi sababi qyyidagicha: dyragaylarda har xil tyrlardan o'tgan xromosomalar meyoza o'zaro kon'yugasiyalashmaydilar. Natijada meyoza maxsiloti hayotchan bo'lmaydi. Agar tyrlararo dyragaylarning xromosomalari ikki karra ortsa, y holda meyoza jarayoni normal kechadi. CHynki shunday tetraploid o'zida chatishishda qatnashgan har ikki tyrning diploid to'plamli xromosomalarini jamlagan bo'ladi. Oqibatda har bir tyrning xromosomalari o'zaro kon'yugasiyalashadilar va ikki qytbga tarqalib gaploid to'plamli xromosomalari bor gametalarni hosil qiladi. Tyrlararo dyragaylarning xromosomalar to'plamini ikki karra oshirish hisobiga o'simliklarni pyshtli qilish mymkinligi G.D.Karpachenko avlodlar aro chatishtirishdan olingan karam va tyrp dyragaylarida isbotlab berdi. By ikki o'simlik tyrning xromosomalari diploid to'plami $2n=18$ ga teng. Ylarni o'zaro chatishtirishdan olingan dyragayda 9 ta tyrpni, 9 ta karamni xromosomasi jamlangani sababli, meyoza jarayonida har ikki tyrga mansyb xromosomalar bilan kon'yugasiya hosil etmagan va gametalar kamomatli bo'lgan. Ayrim holatlarda dyragay hyjayrasida 18 karam, 18 tyrp xromosomalari ychrashi mymkin. Bynday hyjayralar meyoza bo'linishda normal gametalarni hosil qilgani sababli yryg'chi bilan changchi gametalar birlashishi normal bo'lib hosil bo'lgan zigotadan karam-tyrp o'simligi rivojlangan. G'o'zaning ham 52 xromosomalini yangi dynyo tyrlari G.hirsutum.L va G.barbadense.L eski dynyo tyrlari G.herbaseum, G.arboreum tyrlarini Janybiy Amerikaning yovvoyi G.raimondi tyri bilan chatishishi va dyragay xromosoma to'plamini ikki karra ortishi hisobiga kelib chiqqan degan fikrlar bor. odatda aytov a allopoliploid tyrlar diploid tyrlardan reprodyktiv jihatdan aloxidalashgan. SHynga ko'ra ylar o'zaro chatishmaydilar, agar chatishsalar G_1 dyragaylar pyshtsiz bo'ladilar. Ba'zan meyoza va mitoz bo'linishda bir qiz hyjyra 1-2 xromosoma ortiqcha yoki kam taqsimlanishi mymkin. By hodisa aneyploidiya deb ataladi. Aneyploidiyaning evolyusion ahamiyati kam. CHynki y fenotipni keskin o'zgartirib, letal – hayotchanlik pasayishiga sababchi bo'ladi. Xromosoma mytasiyalari orasida dyplikasiyaning evolyusion ahamiyati kata. Dyplikasiya xromosomadagi genlar sonini ko'payishi va xilma-xil bo'lishini asosiy sababchidir.

Xromosomalar delesiyasi dyplikasiyaga qaraganda fenotipni ko'proq o'zgarishiga olib keladi. Delesiya gomozigota holatda letal xossaga ega bo'ladi. Translokasiya va inversiya tyfayli paydo bo'lgan mytant formalar mytasiyaga ychramagan formalar bilan chatisha olmaydi. Natijada Populyasiya ichida evolyusion divergensiya ro'y beradi. Gomologik bo'lmagan xromosomalar orasidagi translokasiya ko'pgina hollarda yangi tyrlarni kelib chiqishi ychy nasos bo'ladi.

Savol va topshiriqlar.

1. O'z-o'zidan changlanadigan organizmlarning Populyasiyasidagi genetik jarayonlar.
2. CHetdan changlanadigan organizmlarning Populyasiyasidagi genetik jarayonlar.
3. Xardi-Vaynberg qonyni. Ynga ta'sir etyvchi omillar.
4. Populyasiya dinamikasining omillari.
5. Evolyusiyaning genetik asoslari.

“ODAM GENETIKASI” BOBINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Reja:

1. Odam genetikasi haqida tushuncha.
2. Evgenikani yaratilishi.
3. Genologik usul.

Odam biosferaning bir qismi va uning rivojlanish mahsuli bo'lib organizmlar qatori irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Genetikaning odam irsiyati va o'zgaruvchanligini o'rgatuvchi bo'limiga odam genetikasi yoki antropogenetika deyiladi. Odam genetikasi odamlarda uchraydigan barcha irsiy belgilarni o'rganadi.

Odam genetikasining dastlabki rivojlanish davrlarida kishilar irsiy belgilarining nasldan-naslga o'tishi to'g'risidagi tushunchalarni o'zlarining hayotiy kuzatishlaridan keltirib chiqaradilar. Genetika fanining paydo bo'lishidan oldin, fransuz shifokori P.Mopertyuy (1750) olti barmoqlilik (polidaktiliya) belgisining nasldan-naslga o'tishini, D.J.Adamson sog'lom, lekin yaqin qarindosh bo'lgan ota-onadan tug'ilgan bolalarda irsiy belgilarning paydo bo'lishidagi ayrim xususiyatlarni o'rgandi. 1800-1880 yillari gemofiliya va ranglarni ajrataolmaslik (daltonizm) irsiy belgi ekanligi aniqlandi. Rus professori V.M.Florinskiyning (1866) fikricha «irsiyatni muhofaza qilish va uni yaxshilash nikohda bo'ladiganlarning maqsadga muvofiq tanlanishiga bog'liq. Fiziologik va insoniylik nuqtai nazaridan olganda nikoh bu avlod qoldirishdir. Bu sohadagi mag'lubiyat uylanmasdan bo'lgan nikoh natijasidir. V.M.Florinskiyning o'z vaqtida va yoshlari bir-biriga teng yoki ozgina farq qiladigan kishilar nikohini ma'qulladi. U yoshlarda juda katta farq bo'lgan kishilar nikohi tarafdori emas edi, chunki bu nikohdan mayib-majruh bolalar tug'ilishi mumkinligini aytadi.

Odam genetikasining paydo bo'lishida ingliz olimi F.Galtonning ishlari ahamiyatlidir. F.Galton odamlarda ziyraklik, aqliy qobiliyat va iste'dodning naslga berilishini o'rgandi. Uning tabiriga ko'ra genetikaning mahsus usullari bilan inson avlodini yaxshilash mumkin. Shu asosda u genetikada mahsus yo'nalish hisoblangan – evgenikani yaratdi va uning asosiy maqsadi qilib odam avlodini yaxshilash deb belgiladi. Evgenika grekcha so'z bo'lib, «ev» - yaxshi, «gayus» - zot, ya'ni odam zotini yaxshilash demakdir. Evgenika haqidagi ilk ma'lumotlarni F.Galton o'zining «Ganiylar irsiyati» (1869) kitobida bayon etdi. F.Galtonning fikricha foydali genlarni ko'paytirish bilan odam avlodini yaxshilash mumkin. Buning uchun esa faqat iste'dodli va qobiliyatli kishilardan nasl olishni, zararli belgilarni yukotish uchun esa shunday belgilari bo'lgan kishilardan nasl qoldirmaslikka da'vat qildi. F.Galton genetikaning egizaklar, avlodlar shajarasini tuzish, dermatoglifika usullariga asos soldi. U odamlarda uchraydigan poligen, ya'ni ko'p genlar bilan yuzaga chiqadigan irsiy belgilarni o'rgandi. F.Galtonning maqsadlaridan biri o'z millatining kelajagini yaxshilash edi. U bu masalani genetik, ya'ni biologik usul bilan amalga oshirishga amal qildi.

Rentgen nurlarining mutagenlik xususiyatini kashf qilgan amerikalik olim G.Myuller ham evgenika tarafdori edi. U buyuk talant egalari bo'lgan (R.Dekart, L.Paster va shularga o'hshash) kishilarning urug' hujayralari bilan ayollarni sun'iy urug'lantirish fikrini ilgari surdi va aqlli odamlardan olinadigan urug'larni saqlash uchun mahsus moslamalar (bank) yaratishini taklif qilib, bu urug'lar shu urug' olingan kishi o'limidan 20 yildan keyin ishlatishi kerakligini aytdi.

Amerikada, Angliyada, Fransiyada, Germaniyada evgenikani rivojlantiruvchi ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlardagi ilmiy ishlar jinoyatchi, ichkilikka

mukkasidan ketgan, asab kasalligi bilan og'rgan kishilardan nasl qoldirmaslikka qaratilgan bo'lib, shunday kishilar ahta qilindi. Lekin bu tadbirlar uzoqqa cho'zilmadi va tez orada bekor qilindi.

1919 yili Yu.A.Filipchenko Petrograd universitetida genetika kafedrasini, bilimlar Akademiyasi qoshida esa evgenika bo'yicha jamiyat tuzdi. Evgenika bo'yicha tuzilgan muassasalarda ayrim iste'dodli kishilarning (A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy va boshqalar) avlodlar shajarasi o'rganildi. Keyinchalik rus evgeniklari jamiyati tuzilib bunga N.K.Kolsov rahbarlik qildi. N.A.Semashko ham shu jamiyat a'zosi edi. Rossiyada 1932 yili tibbiyot biologiyasi instituti ochildi. U 1935 yildan boshlab tibbiyot genetikasi instituti deb atala boshlandi. Institutda S.G.Levit rahbarligida 1930-37 yillar qand diabete kasalligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Leykositlari o'stirish bilan odamlarning hromosomalari o'rganila boshlandi, lekin 1937 yili bu institut yopildi. Keyinchalik S.N.Davidenko, N.P.Dubin, D.D.Romashev, A.A.Malinovskiy, B.N.Efroimson, N.P.Bochkov, E.F.Dovidenko va boshqalar odam genetikasining rivojlanishida o'zlarining katt hissalarini qo'shdilar.

Hozirgi kunda bizning respublikamizda evgenika masalalarini o'rganuvchi olimlar yo'q. Lekin evgenikaning faqat ijobiy tomonlaridagina tibbiyot genetikasida foydalaniladi. Bu evgenikaga qaytish degan gap emas. hozirgi zamon odam genetikasi zamonaviy tekshirish usullarini amaliyotda keng kullab, tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Olimlarimiz oldida to'rgan bugungi kunning asosiy masalalari quyidagilardir: 1. Jinsiy hujayralar orqali ota-onadan utgan irsiy omillarning organizm individual rivojlanishida qanday yuzaga chiqishi; 2. Irsiy kasalliklarning kupayish sabablari (hozirgi kunda irsiy kasalliklarning soni 2500 tadan oshib ketdi). 3. Kasallikning kelib chiqish sabablari; 4. Tashqi muhitning irsiy kasalliklarning paydo bo'lishidagi roli va boshqalar.

Keyingi ma'lumotlarga qaraganda er yuzida 4-5% bolalar irsiy kasallik bilan tug'iladi. Bolalar o'limining 10-20% irsiy kasallik tufayli sodir bo'ladi. Kasalhonalaridagi 25-30% joylar irsiy kasallikka muhtalo bo'lgan bolalar bilan band. Birgina Daun sindromiga ega bo'lgan hastalarni boqishga ketgan harajat butun gripp kasalligiga qarshi kurashishga sarf qilingan mablag'ga teng. Irsiy kasalliklar deyarli barcha a'zolar bo'yicha uchraydi. Masalan, teri kasalliklaridan 250 tasi, asab kasalliklaridan 200 tasi irsiy hisoblanadi. Hozirgi kunda odam genetikasi va tibbiyot genetikasi oldida irsiy kasalliklarni o'rganish va ulaning oldini olish borasida juda katta qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Asosiy qiyinchiliklar quyidagilardir: 1. Genetik tadqiqotlar uchun kuzatuvchi nikohni o'zi belgilamaydi. 2. Sun'iy ravishda mutasiyalar olish mumkin emas. 3. Odam balog'at yoshiga kech etiladi. 4. Kam avlod qoldiradi. 5. Har hil nikohlardan tug'ilgan avlodlarning o'sishida bir hil sharoit yaratilmaydi. 6. Shajara to'liq tuzilmaganligi uchun irsiy kasalliklar hisobga olinmaydi. 7. Hromosomalar sonining nisbat ko'pligi (2p-46) va ularni bir-biridan ajratishning murakkabligi. Lekin bu noqulayliklarga qaramasdan hozirgi kunda genetikasi o'zining quyidagi tekshirish usullari yordamida muhim masalalarni hal qilmoqda.

1. Avlodlar shajarasini tuzish (geneologik usul)
2. Sitogenetik usul.
3. Egizaklar usuli.
4. Dermatoglifika.
5. Populyasion – hisoblash usuli.

6. Biokimyoviy usul.

Odamni genetik jihatdan o'rganishning qulaylik tomonlari shundaki, uning ko'pgina fenotipik ya'ni anatomik, fiziologik, immunalogik, biokimyoviy va klinik belgilari juda yahshi o'rganilgan.

